

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHYER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVYERSITETI**

**Tarix fakulteti**

**“O‘zbekiston tarixi” kafedrası**

**USMONOVA QIZLARXON IBRAGIMOVNA**

**“BUXORO AMIRLIIDA ISLOM NORMALARI VA  
UNING IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTDAGI  
O‘RNI”**

**5220200 – Tarix bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar**

**t.f.n. G. Normurodova**

**SAMARQAND - 2016**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4-10</b>
<b>1-BOB. BUXORO AMIRLIGI AHOLISINING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTIDA ISLOM NORMALARINING O‘RNI.....</b>	<b>11-33</b>
<b>1.1. Jamiyat ijtimoiy munosabatlarida islom dinining tutgan o‘rni.....</b>	<b>11-27.</b>
<b>1.2. Yerga egalik munosabatlari, ishlab chiqarish va savdo munosabatlarida islom normalarining o‘rni.....</b>	<b>28-33</b>
<b>2-BOB. BUXORO AMIRLIGI MADANIY HAYOTIDA ISLOM DININING ROLI.....</b>	<b>34-49</b>
<b>2.1. Maktab va madrasalar – islom ta’limotining o‘choqlari.....</b>	<b>34-43</b>
<b>2.2. Islom mafkurasining ma’naviy hayotdagi o‘rni.....</b>	<b>44-49</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>50-52</b>
<b>FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>53-55</b>

## KIRISH

Mustaqillik sharoitida va tub islohatlarni amalga oshirish jarayonida milliy tiklanish, ma'naviy yangilanish, milliy o'zlikni anglab etgan, milliy g'oya kuchi bilan birlashgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini hal etishda tarix fanining roli ortib bormoqda. Shulardan kelib chiqib, I.A.Karimovning tarix fani vakillari bilan uchrashuvidagi suhbatlarida ushbu fanning dolzarb muammolari muhokama qilinib, O'zbekistonning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini har tomonlama chuqur o'rganish, ko'p asrlar davomida davlatchilik, iqtisodiy va madaniy jarayonlar siyosati tarixini yangicha metodologik nuqtai nazardan tadqiq qilish kabi masalalar qo'yilgan edi<sup>1</sup>.

Bugungi kunga kelib ham, tarix fani sohasida o'zbek davlatchiligi tarixida ba'zi bir masalalar borki, ularni tadqiq etish o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Ana shundaylardan biri – o'zbek xonliklari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida islom dini va uning normalarini tutgan o'rni masalasi hisoblanadi. Zero, o'zbek xonliklari davrida islom dini jamiyatni barcha sohalarini tartibga solib turuvchi asosiy mafkuraviy kuch bo'lgan. Prezident Islom Karimov ham bu haqda shunday deydi: “Ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, hallollik, oxiratni o'ylab yashash yaxshilik, mehr-shafqat singari

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 316.

xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi"<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, o'zbek xonliklari davrida ham islom dini haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni avlodlarga etkazishda beqiyos o'rin va ahamiyatga ega edi. Shunisi e'tiborliki, islom dini normalari xonliklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan tortib, madaniy va ma'naviy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, o'zbek xonliklari davrida islom va shariat normalari har doim ham to'g'ri talqin etilganmi? degan savol tug'ilishi mumkin. Bu masalaning ijobiy va salbiy xususiyatlarini ko'zdan kechirish mazkur bitiruv malakaviy ishi oldigan qo'yilgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur masalani shuningdek, faqat Buxoro amirligi misolida o'rganib yoritish asosiy masqad qilingan.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifasi.** Ishning asosiy maqsadi Buxoro amirliida islom normalari va uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rnini yoritishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Buxoro amirligi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida islom normalarining o'rnini tahlil qilish: ya'ni, jamiyat ijtimoiy munosabatlarida islom dinining tutgan o'rnini o'rganish;
- yrga egalik munosabatlari, ishlab chiqarish va savdo munosabatlarida islom normalarining tutgan o'rnini yoritish;

---

<sup>2</sup> Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 36.

- Buxoro amirligi madaniy hayotida islom dinining rolini tahlil qilish, ya'ni maktab va madrasalar – islom ta'limotining o'choqlari faoliyatini yoritish;
- islom mafkurasining ma'naviy hayotdagi o'rnini o'rganib yoritishdan iborat.

**Malakaviy bitiruv ishining o'rganilishi darajasi.** Tarixiy va ilmiy adabiyotlarni o'rganib tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ushbu mavzu alohida bitiruv malakaviy ishi mavzusi sifatida tanlanib o'rganilmagan. Lekin muayyan davrlarda Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tarixiga bag'ishlab yoritilgan ilmiy ishlar ko'p. Ushbu ilmiy ishlarni yaratilgan davri jihatidan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: 1) XIX-XX asr boshlariga oid izlanishlar; 2) Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar; 3) Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar kiradi.

**Birinchi guruhga** oid XIX-XX asr boshlariga oid yaratilgan kitoblar asosan Buxoro amirligiga kelgan rus, xorij sayyoh, elchilariga tegishli esdaliklarni tashkil qiladi. Bularning sirasiga V.P. Nalivkin<sup>3</sup>, M. Virskiy, N. Ostroumov, A. Vambyeri<sup>4</sup> tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Jumladan, V.Nalivkin, V.Radlov asarlarida, amirlikning aholi turmushi, jamiyat tartib-qoidalarini islom dini me'yorlari asosida to'g'risida bo'lib, bu ma'lumotlar o'sha davr aholisi hayotini to'liq tasavvur etishga imkon byeradi.

---

<sup>3</sup> Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1913. – 144 с.; Краткий обзор современного состояния и деятельности мусульманского духовенства, разного рода духовных учреждений и учебных заведений туземного населения Самаркандской области, с некоторыми указаниями на их историческое прошлое // Сборник материалов по мусульманству. – СПб., 1889. Т. 1. – С. 1-47.

<sup>4</sup> Вирский М. Сведение о Зерафшанском округе. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып.4. – СПб., 1876. – С.10-56; Хлопководство и хлопковая промышленность в Самаркандской области // Справочная книжка Самаркандской области. – Самарканд, 1897. Вып. 5. – С. 63-92. ; Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. – Ташкент, 1896. Вып. 1. – 272 с.; Исламоведение. – Ташкент: Изд. Туркестанских ведомостей, 1914. А.Вамбери. Очерки Средней Азии. – М., 1868.

Xususan, Rossiya bosqini arafasidagi Buxoro amirligida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, amirlik hayotida mavjud bo'lgan ijtimoiy-me'yoriy munosabatlar tahlili to'g'risida A.Vambyeri qiziqarli ma'lumotlar byeradi.

**Ikkinchi davrga** taalluqli adabiyotlar tarkibiga sovet tuzumi davrida nashr etilgan va markscha-lenincha metodologiyaga asoslangan adabiyotlar, maqolalar tashkil etadi. Ularga A. A. Semenov, O. Suxareva, B. Iskandarov, A. Majlisov. N. Kislyakov, P. Ivanov, M. Abduraimov<sup>5</sup> kabilarning asarlarini kiritish mumkin.

N.A. Kislyakov, o'z asarida ko'proq Buxoro amirligining ijtimoiy tizimi tahlil qilingan. A.A. Semenov o'z tadqiqotida, Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan islom dini va diniy tabaqalar, ularning bajargan vazifasi, darajasi va lavozimlar tasnifini batafsil tahlil etgan.

P.P. Ivanov ham o'z tadqiqotida, XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga to'xtalib o'tib, aholining ijtimoiy ahvoli, soliq tortish va yig'ish borasidagi zulm va zo'ravonliklar, aholi tomonidan ko'tarilgan isyonlar to'g'risida ma'lumot byeradi.

---

<sup>5</sup> Семенов А. А. Очерк земельно-податного и налогового устройства бывшего Бухарского ханства. – Т., 1929. –54 с; Ўша муаллиф, Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. – Сталинабад. 1954, – 76 с; Сухарева О. А. Бухара: XIX–начало XX в. (позднефеодальный город и его населения).– М., 1966. – 328.; Искандаров Б. И. Из истории Бухарского эмирата, (Восточная Бухара и западный Памир в первой половине XIX в.) – М., 1958. -131 с; Маджлисов А. Аграрные отношения в Восточной Бухаре в XIX-начале XX в.в. – Душанбе – Алма-Ата; 1967; Кисляков Н. А. Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX – начале XX в. – М-Л., 1962; Иванов П.П. Очерк по истории Средней Азии (XVI-XIX в). – М., 1958. Абдураимов М. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI–первой половине XIX века – Т., 1966, – 369 с.

A. Abduraimov asarida asosan yerga egalik munosabatlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan bo‘lib, shariat asosida yerga egalik qilish hamda soliq munosabatlari haqida ham gapiriladi.

Mazkur kitoblarda mustabid sovet tuzumi davrida ilgari surilgan marksizm-leninizm g‘oyalari ham o‘z ifodasini topgan.

YUqorida qayd qilingan adabiyotlar manbalar asosida tahlil etilishiga qaramay, aksariyati sovet tuzumi davrining hukmron mafkurasiga bo‘ysundirilganligi o‘zida namoyon etadi.

**Uchinchi guruhga** O‘zbekiston mustaqilligi davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar kiradi. Bu davrda Vatanimiz tarixini xolisona va adolatli o‘rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Mustabid tuzum davridagi biryoqlamalikka barham byerildi. Bu davrda O‘zbekiston tarixiga yangicha yondashuv asosida yaratilgan ilmiy ishlar maydonga keldi. H. Ziyoev, D. Alimova, SH. Vohidov, F. Qosimov, Q. Rajabov, F. Ochildiev, A. Xoliqulov, R. Xoliqova<sup>6</sup> va boshqa mualliflarning ilmiy tadqiqotlarida Buxoro amirligi tarixining ayrim jihatlariga taalluqli masalalar ustida to‘xtalib o‘tilgan.

Hammualliflikdagi «O‘zbekistonning yangi tarixi» kitobining 1-qismida Buxoro amirligining Rossiya bosqini arafasidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli yoritib byeriladi.

---

<sup>6</sup> Зиёев Х. 3. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш (XVII–XX аср бошлари.) –Т.: Шарк, 1998.; Алимова Д.А. История как история, история как наука. В 2-х т. – Ташкент: Узбекистан, 2009. Т.2. – 181с.; Шодмон Воҳид. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. Т., 1996.; Қосимов Ф. Ўзбек давлатчилиги тарихида Бухоро хукмдорларининг ўрни. // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. – Т. 2001. 192–193- бетлар; Очилдиев Ф. Бухоро амирлигида иқтисодий ҳаёт. // Жамият ва бошқарув, 2001, 2- сон. Холиқова Р. XIX аср охири ва XX аср бошларида Бухоро амирлиги // Жайхун, ТерДУ хабарлари, 2005, 1- сон. 32–37- бетлар. Авазов Ю.У. XIX аср охири –XX аср бошларида Бухоро амирлигининг жанубий – шарқий бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаёт. Тарих фанлари номзоди илмий даражаси учун ёзилган диссертация. Қўлёзма. –Тошкент, 2005. -С.31.

Shunday qilib, tarixshunoslik nuqtai nazaridan yuqorida keltirilgan tadqiqotlar va kitoblarda o'rganilayotgan muammoning u yoki bu tomoni yoritib byerilgan. Shu bilan birgadikda, mustaqillik davrida yaratilgan tadqiqotlarda zamonaviy tarixiy tadqiqot usullari, tizimli yondoshuv, davriy-muammoviy tahlillar o'z aksini topdi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi ilk bor Buxoro amirligi misolida islom normalari va uning amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rnini bilan belgilanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi uning quyidagi ilgari surilgan masalalarni yoritilishida o'z aksini topgan: Buxoro amirligi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida islom normalarining o'rnini tahlil qilish: ya'ni, jamiyat ijtimoiy munosabatlarida islom dinining tutgan o'rni o'rganish; yrga egalik munosabatlari, ishlab chiqarish va savdo munosabatlarida islom normalarining tutgan o'rnini yoritish; Buxoro amirligi madaniy hayotida islom dinining rolini tahlil qilish, ya'ni maktab va madrasalar – islom ta'limotining o'choqlari faoliyatini yoritish; islom mafkurasining ma'naviy hayotdagi o'rnini o'rganib tahlil etildi va ilmiy xulosalar byerildi.

**Tadqiqotning predmeti va ob'ekti.** Tadqiqotning predmeti va ob'ekti Buxoro amirligida mavjud islom normalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rnini bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning ilmiy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishidan olingan umumiy xulosa va natijalardan talaba yoshlar milliy o'zlikni anglash, barkamol avlod bo'lib shakllanishi uchun, o'z milliy tarixi to'g'risida xolisona mustaqil fikr-mulohazalar bildirish, shuningdek O'zbekiston tarixi bo'yicha etarli ko'nikmaga ega bo'lish imkonini byeradi.



Bundan tashqari, ta'lim tarmoqlari saytiga kiritilgan bitiruv ishi mavzusidan o'quvchi, talabalar mustaqil ish, kurs ishi hamda bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

### **Ishning qisqacha mazmuni.**

Har ikkala bobda, Buxoro amirligi aholisi hayotining barcha sohaları jumladan, ijtimoiy munosabatlardan tortib, iqtisodiy, madaniy munosabatlara qadar islom va uning asosi bo'lgan shariatning kuchli ta'sirida bo'lganligi yoritilgan. Amirlikda jamiyatda belgilangan har qanday qoida va me'yorlar shariat nuqtai nazaridan belgilangan edi. Bu aholining oddiy turmush tarzidan tortib, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarda, yer-suvga egalik, jamoa va oila tartiblari, soliq tizimi, aholi kasbi-kori kabilardan tortib to yuqori boshqaruv tizimiga qadar o'z aksini topgan edi. Jamiyatda o'rnatilgan islom me'yorlardan chetga chiqish yoki olib kirilmoqchi bo'lingan har qanday yangilik keskin qarshilikka uchragan.

Aholi tabaqalari o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy tengsizlik jihatidan kelib chiqib, oliy tabaqaviylik imtiyozi zodagon qatlam bilan quyi qatlam o'rtasidagi farqni belgilab byergan. Islom va shariatning hayotning barcha sohalarida hukmron kuchga aylanishi, bir tomondan, ijtimoiy, me'yoriy va an'anaviy qadriyatlarning, munosabatlarning barqarorligini ta'minlagan bo'lsa, boshqa tomondan, diniy mutaassiblikning kuchayishi, boshqaruv tizimida zulm va zo'ravonlik holatlarining kuchayishi, yerga egalik munosabatlarida eski usulning saqlanishi, ishlab chiqarish munosabatlarining past darajada bo'lishi, jamiyat ijtimoiy tizimida tabaqalanish jarayonining turg'un saqlanishi kabi salbiy holatlar aholi va jamiyat hayotining taraqqiyotdan orqada qolishiga sabab bo'ldi.

# **1-BOB. BUXORO AMIRLIGI AHOLISINING IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTIDA ISLOM NORMALARINING O'RNI.**

## **1.1. Jamiyat ijtimoiy munosabatlarida islom dinining tutgan o'rni.**

Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligi hayotining yuqori boshqaruv tizimidan tortib, aholi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, aholining turmush tarzi, yer-suvga egalik munosabatlari va umuman jamiyat hayotining barcha sohasi islom dini va uning me'yorlari asosida tartibga solingan. Buxoro amirligiga tashrif buyurgan ingliz leytenanti A.Borns ham amirlikda boshqaruv tizimi Qur'oni Karimga asoslangan edi, deya tasdiqlagan edi<sup>7</sup>.

O'rta asrlarda boshqa musulmon davlatlari singari, Buxoro amirligida ham, islom dini hayotning barcha jabhalarida hukmron kuchga aylangan. Aholi hayotidagi barcha muhim masalalar, xususan, yerga egalik munosabatlaridan tortib, soliq, savdo, aholi kasb-kori va turmush tarzidagi barcha qoida va me'yorlar to'liq shariat talabi ostida bo'lgan. SHariat – islom qonuni hayotning barcha jihatlarini tartibga solib turgan.

Buxoro amirligida mavjud boshqaruv huquqiy tizimi XVI-XVIII asrlarda shakllangan bo'lib, asrlar davomida deyarli o'zgarmagan.

Buxoro amirligi huquqiy tizimi dualizmga asoslangan edi. Davlat ishlarini boshqarish, hozirgi kundagi ommaviy huquq deb nom olgan, ya'ni davlat manfaatlarini ifoda etadigan davlat huquqi, ma'muriy huquq dunyoviy xususiyatga ega bo'lsa, xuquqiy huquq deb nom olgan mulkiy, oilaviy munosabatlar X asrga qadar hanafiylik maktabi tomonidan yaratilgan shariat qoidalari hamda mahalliy odatlar bilan tartibga solingan. Jinoyat huquqi esa

---

<sup>7</sup> Борнс А. Путешествие в Бухару. – М., 1850. Часть. III. – С. 47.

davlat manfaatlari masalasida dunyoviy, xususiy manfaatlar masalasida aralash (islomiy va an'anaviy) huquq xususiyatiga ega edi.

Davlat boshqaruvini tashkil qilish va amalga oshirish munosabatlari ko'ra, tuzuk, yo'sin kabi mahalliy huquqiy odatlarga asoslangan. Yerdan foydalanish, savdo-sotiq, hunarmandchilik soxalaridagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda shariat qoidalari bilan birga an'anaviy normalar ham ko'proq salmoqqa ega bo'lgan. Hunarmandlar, savdogariarning hulq-atvorini tartibga soluvchi maxsus normalar "maqomotlar" amal qilgan.

Musulmon huquqi Buxoro amirligida hech bir davrda yagona manbaga asoslangan huquq bo'lmagan, huquqiy munosabatlarni tartibga solishda odat huquqining ahamiyati beqiyos edi. Bu davrdagi huquq manbalari, ulaming dualistik xususiyati, odat huquqi va musulmon huquqining amal qilish chegaralarini huquqiy tushunchalar, yuridik terminologiya, grammatika, yuridik texnika qoidalari masalalari chuqur tadqiq etilgan. Shunday qilib, odat huquqi va shariat qonunlarini amal qilish chegaralarini o'rganish, huquqiy odatlarning salmo'i, ulaming sohalari va manbalarini tadqiq qilish muhim.

Davlat tuzumi yarim dunyoviy despotik monarxiya bo'lib, davlat boshlig'i - amir cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan. Uning shaxsi daxlsiz va muqaddas, u ham dunyoviy, ham diniy boshqaruv boshida turgan, hokimiyatni tangri irodasi bilan egallagan, u tangri oldida javobgar va tangrining yyerda hukm yurutuvchi noibi sanalgan. Buxoro amiriigi teokratik davlat xususiyatlariga ega bo'lsa-da, amalda yarim dunyoviy davlat edi, chunki davlat boshqaruvi diniy qoidalarga emas, balki dunyoviy huquqiy odatlarga asoslangan edi. Ayrim mualliflar amirning hokimiyati shariat bilan chegaralangan, deb hisoblashgan. Lekin amirning istalgan masalada farmon chiqara olishi va bu farmonlarni shariatga zid emasligini mustahkamlash uchun shayxulislom yoki a'lam tomonidan fatvo bilan qo'llab-quvvatlanishi

muqarrarligi, amirning cheklanmagan dunyoviy hokimiyatga egaligidan dalolat byeradi.

Buxoro amirligining Rossiya impyeriyasi protektoratiga aylanishi huquqiy tizimga sezilarli ta'sir qilmagan bo'lsa-da, davlat boshlig'i irodasi mustamlakachi markaz manfaailari bilan chegaralandi. Ayrim siyosiy qarorlarni qabul qilish masalasida amir mustaqil harakat qila olmas edi.

Buxoro musulmon dunyosida alohida o'rin tutgani sababli, shariat qonunlarini himoya qiluvchi Qozikalon lavozimi ham asosiy o'rinda turgan. U Islom peshvolarining va islom qonunchiligining boshlig'i bo'lib eng og'ir jinoyatlar va muhim fuqarolik ishlari bilan shugullangan.

Qozikalon qoshida Muftiyar devoni faoliyat ko'rsatgan ularningsoni 12 kishidan iborat bo'lgan.

Rais vazifasi ham eng katta lavozimlardan biri bo'lib asosan Saidlardan va Payg'ambar avlodidan bo'lgan shaxslar bu lavozimga tayinlangan<sup>8</sup>. Uning asosiy vazifasi tosh tarozu va uzunlik o'lchovlsri qonun qoidalarni buzganlarni jazolashdan iborat bo'lgan.

Mirshab (tungi qarovul boshlig'i) lavozimi ham muhim hisoblanib uning ixtiyorida zindon va shahar qarovullari bo'ysungan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan lavozimlar aholi o'rtasida "Chor hokimiyat" ya'ni to'rt hokimlik deb yuritilgan. Mazkur lavozim- larning hammasini tayinlash va bo'shatish masalalarini amir Rossiya sibsiy agentligi bilan kelyshib hal qilgan.

Bekliklarning ma'muriy boshligi bek (hokim) hisoblanib amir tomonidan tayinlangan. Ma'lum xududdagi butun hokimiyat unga bo'ysingan.

Bekliklar esa bir necha amlakdorlikka **bo'lingan** va ular- ning boshida **amlakdorlar** turgan. Ularning asosiy vazifasi amir xazinasini uchun o'lpon

---

<sup>8</sup> Хотамов Н Свержение эмирского режима в Бухаре. – Душанбе, 1997. - С-26.

to'plash bo'lgan.

Amlakdorliklar yana mayda tumanlarga bo'lib bir necha qishloqlardan iborat bo'lgan va ularning boshida, arbob turgan. Har bir qishloqda esa oqsoqol qo'yilgan. O'z, navbatida har bir beklikda Mirob tayinlanib suv masalalari bilan shug'ullangan. Beklikdagi Zakatchi esa zakat yig'ish bilan shug'ullangan.

Har bir beklik va tumanlarda amir tomonidan tayinlangan Qozi turgan va bevosita Qozikalonga bo'ysungan. Shunday qilib Buxoro amirligidagi boshqaruv tizimi ko'p qatlamli guruhlardan iborat bo'lgan

Davlat boshqaruvi tizimi harbiy-ma'muriy boshqaruvchilar toifasi - umarolar hamda diniy, sudlov amaldorlari toifasi - ulamolarga tayangan. Umarolarning 15 darajasi, ulamolarning 10 darajasi bo'lganligi to'g'risida gapirish mumkin. Har bir darajaga ega bo'lgan umaro yoki ulamo u yoki bu davlat amalini egallashi mumkin edi. Masalan, to'pchiboshi (qo'shin boshlig'i) yoki to'pchiboshi darvoza (amirlik xavfsizlik idorasi boshlig'i) mansabini egallash uchun shaxs kamida 10-umaro darajasi, ya'ni dodho darajasiga ega bo'lishi kerak edi. U yoki bu darajajarni amaldorga berish yoki ulami bu darajalardan mahrum qilish masalasini shaxsan amir hal qilardi. Bunda shaxsning davlat oldidagi harbiy yoki ma'muriy xizmatlari, qobiliyati, qaysi tabaqadan ekanligi muhim rol o'ynagan.

Ko'pincha o'zbek urug'larining zodagonlari harbiy-ma'muriy darajalarni olishga muvaffaq bo'lgan, Qaysi tabaqaga tegishliligidan qat'iy nazar eng iqtidorli kishilar ham yuqori davlat darajalarini egallashga muvaffaq bo'lishgan. Masalan, ko'p hollarda eng yuqori darajalar — qo'shbegi (bosh vazir), devonbegi (amir ma'muriyati rahbari) darajasiga forsiy qullar tayinlangani tarixiy manbalardan ma'lum. Bu holat zodagonlar tomonidan fitna uyushtirilishining oldini olish va sulola xavfsizligini saqlashga ham xizmat qilgan.

Darajalarning nomlari va ma'nosi odat normalariga asoslangan. Masalan, jevachi (sovulbardor), qorovulbegi (qorovullar boshlig'i), miroxur (otxona boshlig'i), to'qsabo (o'z tug'iga ega); dodxoh (shikoyatlarni o'rganib chiquvchi), inoq (hukmdorga yaqin maslahatchi), parvonachi (davlat boshlig'i farmonini uzatuvchi), devonbegi (devon boshlig'i), otaliq (ota o'rnida maslahatchi) va boshqalar.

Ko'pgina lavozim darajalari bir vaqtning o'zida mansabni ham ifodalagan. Masalan, qo'shbegi eng yuqori lavozim darajalardan biri va bir vaqtning o'zida bosh vazir vakolatlariga ega bo'lgan mansab hisoblangan. Urush va tinchlik vaqtida u davlat boshlig'i va oliy bosh qo'mondon - amirning o'rinbosari. Devonbegi, mirshabboshi, to'pchiboshi va to'pchiboshi darvoza faoliyatini nazorat ostiga oladi. Garchi otaliq darajasi qo'shbegidan yuqori tursada, aslida u nominal xususiyatga ega bo'lgan, chunki bu daraja faqat voyaga yetmagan davlat boshlig'iga maslahatchi-rais kerak bo'lgan vaqtda ahamiyatli edi.

Barcha umaro darajalari 3 bo'g'inga ajralgan. Quyi bo'g'inga sakkizta daraja (bahodirdan eshikog'oboshigacha), o'rta bo'g'inga beshta daraja (biydau devonbegigacha), yuqori bo'g'inga ikkita daraja (qo'shbegi va otaliq) kirgan. Har bir bo'g'in darajalariga muayyan ramziy unvon va nom in'om etilgan. Quyi daraja egalari unvon nomlari bilan yuqori daraja egalari murojaat qilishi lozim bo'lgan. Quyi bo'g'in darajalariga muborizatpanoh (urush panohi), o'rta bo'g'in darajalari amoratpanoh (boshqaruv panohi), yuqori bo'g'in darajalariga vazoratpanoh (hukumat panohi) degan unvon byerilgan, davlat boshlig'i - amir taxtga o'tirishi bilan olampanoh (mamlakat panohi) unvoniga ega bo'lgan. Quyi bo'g'in darajalarini egallagan shaxslar boshqaruvda quyi va o'rta mansablarga egalik qila olishgan, o'rta bo'g'in darajalariga ega shaxslar mahalliy va markaziy boshqaruvda yuqori mansablarga ega bo'la olishgan, yuqori bo'g'in darajalariga ega shaxslar

hukumarga rahbarlik qila olishgan. Har bir unvon va daraja egasi maxsus davlat belgilari bilan ta'minlangan. Bunday maxsus belgilarga tug', maxsus kiyim va belbog', amir farmoni va unvon muhri kirgan.

Buxoro amirligida islom dini normalari va uning qoidalarini tadbiq etish holati to'g'risida mahalliy tarixchi, ma'rifatparvarlar tomonidan bildirilgan ma'lumotlar diqqatga loyiq. Biz bu borada Ahmad Donish, Abdulazim Somiy, Mirzo Salimbek, Sadriddin Ayniy va Abdurauf Fitrat asarlari Buxoro amirligining ijtimoiy tuzumi, davlat boshqaruvi va xo'jalik hayotda islom dini va uning normalarini qanday kch va ta'sirga ega bo'lganligi to'g'risida xulosalar chiqaramiz. Bunda awalo, Buxoro tarixiy jarayonlariga bevosita aloqador bo'lgan va ularni yozib qoldirgan kishilar guvohligi asosidagi ma'lumotlarga murojaat etamiz.

Ana shunday ma'rifatchi olim va shoir **Ahmad Donish**, o'z davrining yetuk bilimlar muhandisi bo'lgan. XIX asrning 50-yillari o'rtalarida amir Nasrulloh saroyida bosh hattot va rassom sifatida ish boshlagan Ahmad Donish 1870 yilda adolatli davlat haqidagi tasavvurlariga mos kelmaydigan hizmatni ixtiyoriy tark etadi. U mazkur voqea haqida shunday yozadi: "... qo'shin va hokimlarga xizmat qilish menga og'ir va natijasiz ko'rindi, men taklif va e'tirozlarga qaramay, bundan ketdim va madrasaga joylashib, quruq nonga qoniqish hosil qildim"<sup>9</sup>.

Buxoro amirlari uning chuqur bilimlarini hisobga olib, Rossiyaga yuborayotgan elchilar safida uch marta safarga yuboradi. Bu safarlar undagi hukmron doiralariga nisbatan bo'lgan tanqidiy munosabatni yanada chuqurlashtirdi.

---

<sup>9</sup> Епифанова Л.М. Рукописные источники по истории Средней Азии. Период присоединения ее в России. –Ташкент: Наука, 1965. – С.14.

Ahmad Donish 70-yillardan to amir Muzaffar vafotiga qadar, uzoq G‘uzor va Norpay viloyatlarida qozi bo‘lib ishlaydi. Bu vazifada ishlash uning Buxoro ijtimoiy tuzilishida sotsial-iqtisodiy o‘zgarishlar zarurligi haqidagi pozitsiyasini yanada qat’iylashtiradi. O'zining «Navodir al-vaqoye» «Nodir voqyealar» asarida mavjud tuzumga o'z munosabatini bildiradi va Buxoro xonligida davlat boshqaruvi islohatini taklif etadi. Uning «Risolai tarixi amiron mang'it» («Mang'it amirlari tarixi haqidagi risola») nomli mashhur asarida yerkin tasviri byerilgan bo'lib, boshqaruv tizimi bayoni, halqning ahvoli, Rossiya bilan urush masalalari yoritilgan. A.Donish o‘z asarlarida Buxoroning umumiy manzarasini tasvirlar ekan, u shunchaki tanqidchi emas edi, Vatanining g‘arib ahvolini anglashdek og‘ir yuk uning yelkasiga tushgandi.

Ahmad Donish amir Doniyolbiydan to Abdulahadgacha bo‘lgan (amir Shohmuroddan tashqari) barcha Buxoro amirlarini davlat va uning fuqarolari farovonligi yo‘lida emas, balki faqat o‘z shaxsiy manfaati yo‘lida qayg‘urgan hukmdorlar sifatida tasvirlaydi. “Ular – deb yozadi u, - nima topishsa, o‘shani olib qo‘yishar, beva-bechoralar shamchirog‘idan olovdan tortib, vaqf omboridagi g‘allagacha o‘g‘irlashar, qorin g‘ami va quvonchuxursandchiliklariga xizmat qilsa bo‘ldi deb bilar edi. Hech kim qarshilik ko‘rsatishga jur‘at etmasdi. Amirlar va hokimlar orasida qimorbozlik, mayxo‘rlik va buzuqchilik auvj oldi, dehqon va hunarmandlarda esa shafqatsizlik, ezish, soliqlar va aminona, vakilona kabi yig‘imlar syerobligidan na turish, na yurishga hol qoldi”<sup>10</sup>. Mana shunday hayotiy misollar keltirib, u shunday yozadi: «Agar biror beva bozorga bir to‘p ip olib kelib, uni uch fulusga (mahalliy tanga) sotsa, shundan ikki fulusini amin olib

---

<sup>10</sup> Епифанова Л.М. Рукописные источники по истории Средней Азии. Период присоединения ее в России. –Ташкент: Наука, 1965. – С.19.



qo'yadi, agar biror kishi bir bog'lam o'tinni uch dirhamga sotsa, shundan ikki qismi amin ulushi bo'ladi».

A. Donish G'ijduvondan Buxoroga pilla olib kelgan dehqon tilidan qiziq hikochni keltiradi: "Bozorga kelishim bilan molimni bir necha tarozitomon tortib ketishdi, 2-3 joyda aminona va joy haqi olishdi va molimni og'irligini yarmini tushirib o'lchab, uni yarim bahosida belgilanadi. Men o'g'rilar tarozisida o'zim ham yo'qolib ketmay deb, qo'rquvda bozordan tezroq chiqib ketishga intildim"<sup>11</sup>. Bunday vaziyat barcha sohalarda uchrardi. Buxoro uchun o'ta muhim hisoblangan sug'orish sohasida ham o'g'irlik kuchli edi. Shaharga suv kelishidan ancha oldin miroblar haq ola boshlar, ular hatto ariq tozalaganlardan ham olinardi. Dehqonlardan odam turmaydigan yerlar uchun ham soliq olinar, to'lamaganlarni qamoqxona xavfi kutardi. Mirshablar haqida gap ketganda, A. Donish so'zicha, ular davlatdan maosh olmagan. Ularga nohaq aholi to'lovlari hisobidan maosh berilgan, tabiiyki, shu bois ular fuqaro manfaatlarini muhofaza qilish o'rniga, hatto bosqinchilar bilan kelishib, qaroqchilik ham qilardilar. Albatta, bu chirik tizimning eng quyi qatori edi. Oliy qator esa esa saroyda bo'lib, davlat lavozimiga tayinlash pora shaklida ulkan tuhfa yoki da'vogar lavozimiga go'zal yoshgina qiz tortig'i bilan tayinlangan.

Amir Muzaffar davrida amaldorlarning suiiste'molchiliklari, hokimlar va amirlarning ochko'zligi, o'z hatti-harakatini oqlash uchun diniy qonun-qoidalardan foydalanishi, sxolastik xususiyat kasb etuvchi ta'limning ayanchli ahvoli, davlat mustaqilligini saqlashga yo'naltirilgan aniq tashqi iqtisodiy harakatlarning yo'qligi, mintaqada yangi yerlarni bosib olishga yo'naltirilgan ancha tor intilishlar, xalqning qashshoq ahvoli Buxoro xonligining umumiy manzarasini tashkil etardi. Biroq Ahmad Donish

---

<sup>11</sup> Трактат Ахмада Дониша. История Мангитской династи. Перевод. И.А. Наджавофой. – Душанбе: Дониш, 1967. – С. 83.

shunchaki tanqidchi emas edi, Vatanining g‘arib ahvolini anglashdek og‘ir yuk uning elkasiga tushgandi. U rivojlangan mamlakatlar haqida yaxlit tasavvurga ega edi, shuning uchun Vatanini taraqqiyot yo‘liga olib kiradigan yo‘llar borligiga va mutaraqiy ishlarda qobiliyatli insonlar borligiga ishongan.

U islohatlarni muhim hayotiy soha – sug‘orishdan boshlashni taklif etadi. “Risola” asarida Kalif va Karki tumanida Amudaryodan sug‘orish kanalini o‘tkazish loyihasini keltiradi. Zarafshonning suvlari Rus-Buxoro urushidan so‘ng podsho hokimiyati ixtiyorida qolgach, xonlikda suv tanqisligi, qurg‘oqchilik yuzaga keldi. Soliq olish esa bundan kamaymadi, aholi qishloqlardan Kazali va ruslar nazorati ostidagi yerlarga ketib qoldi. Bu hol qishloqda ijtimoiy o‘zgarishlarga olib keldi.<sup>12</sup>

Donishning yozishicha, aholining chorak qismi bu tanazzullikni yaxshi anglar edi va bu tartiblardan norozi edi. Halqning mazkur qismi sepgan uyg‘onish urug‘lari tufayli, taraqqiyot va jamiyatning to‘laqonli rivojiga chaqirgan, jadidchilik deb nomlagan harakat yetilib kelayotgan ediki, Ahmad Donishning o‘zi unga asos soldi.

Ahmad Donishning izdoshi Mirza Muhammad Abdulazim Somiy Bo‘stoniy o‘z davrida fan olamida mashhur bo‘lgan. O‘rta Osiyoda tuzilgan tazkiralarda uni taniqli tarixchi, adabiyotchi, shoir, hattot va “nutq ustasi” deb ta’kidlashadi. U amir Muzaffar xizmatida bo‘lgan va amir Abdulahad davrida o‘n yil munshiy vazifasida ishlaydi. XIX asr oxirlari XX asr boshlaridagi voqyealar guvohi sifatida «Tarixi salotini mang‘itiya dor ussaltanan Buxoroi sharif» (Buxoroi sharif saltanatidagi mang‘it hukmdorlari tarixi) asarini yozadi. Ush asar, ayniqsa O‘rta Osiyoning podsho Rossiyasi tomonidan bosib

---

<sup>12</sup> Алимova Д., Рашидов У. XIX аср охири ва XX аср бошларида Бухородаги сиёсий ҳаракатлар ва курашлар. – Бухоро, 2009. – Б.7-9.

olinishi tarixi, jang manzaralari, aholining kayfiyati va ahvoli, Dukchi eshon qo‘zg‘oloni kabilar haqida to‘laqonli tasavvur byeradi.

Sovet manbashunosligida bu qimmatli asardan kyerakli joyi “yulib” olinib foydalanildi, Somiyning o‘zi ruslarga qarshi g‘oyalar targ‘ibotchisi deb baxolandi, “qushib olinishining taraqqiyparvar ahamiyati”ni tushunmaslikda ayblandi. Ayni paytda u nihoyatda vatanparvar va Vatanning haqiqiy farzandi bo‘lgani uchun rus qo‘shinlarining harakatini bosqinchilik harakati sifatida ta’riflaydi. Rossiya bilan urush chog‘ida “vaqei nigor” – “voqealarni kuzatuvchi” vazifasida ishlagan muallif, o‘z asarida mamlakatning umumiy texnik va harbiy qoloqligi, tasodifiy kishilardan iborat, ko‘pchiligi “o‘g‘ri, qimorboz ... qurol otishni umrida eshitmagan” qo‘shinning ahvolini haqqoniy yoritib byergan.

Tarixchilar Somiyning ishdan olinishi va saroydan haydalishi sababini atrofdagi mansabdorlarga va boshqaruv tizimining o‘ziga salbiy munosabatida ko‘radilar. U she’riy asarlarida maishat va gunoh ishlarga byerilgan saroy ayonlari, amirning o‘zini ham tanqid ostiga oladi. Bu she’rida “Haqiqatohanglari zamindan samoga uchadi”, deb yozadi u. Haqiqatni voqeilikdan topa olmagan shoirning so‘zlari emasmi bu.

Tarixchi Somiyning fikricha, amir Nasrulloh (1826-1860 yy.) davrida boshlangan, amir Muzaffar (1860-1865 yy.) davrida kuchaygan davlat inqirozi va xalq qashshoqligi, hukmron tizimining buzg‘unchilik kuchi amir Abdulahad (1885-1910 yy.) davrida Buxoroni juda og‘ir ahvolga olib keladi. Somiyning fikricha, “ba’zi tajribali oqsoqollar Buxoro davlati inqirozi sanasini ushbu amir Nasrulloh taxtga o‘tirgan paytdan sanay boshlaydilar va ular o‘ylagandek bo‘lib chiqdi. Amir Bahodirxon o‘ttiz besh yil podshohlik va 1277 (1860 (61)) yili dorilfanodan dorilbaqoga rixlat qildi”. Uning o‘rniga taxtga o‘tirgan amir Muzaffar Somiyning yozishicha, “ezish va

adolatsizlikdan otasidan ham o‘tib ketdi... Sekin asta ish shariat qoidalarining buzilishiga qadar borib taqaladi”. Muallif Rossiya bilan urushdagi mag‘lubiyatda Muzaffarxonni ayblaydi, chunki u o‘z manfaatlaridan boshqasini o‘ylamay, ruslar Toshkentni qamal qilganidan foydalanib, Qo‘qonga hujum uyushtiradi. Tarixchi quyidagi qiziqarli ma’lumotlar byeradi.

Biroq, Somiydan farqli o‘laroq, Donish ruhoniylarning faoliyatini ham tanqidiy baholadi, ular amir kabi raqib haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmagan, ulkan olomonni yig‘ib, qo‘liga kaltak byerib, jihod yurishiga majbur qilgan va bu bilan aniq o‘limga yuborgan. Abdulazim Somiy ham Ahmad Donish singari feodal hukmdorlari haqida ham keskin fikr bildirib, xalqning og‘ir ahvolini yorqin bo‘yoqlarda tasvirlashgan.

Ularning yosh zamondoshi, taniqli buxorolik tarixchi Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahim so‘nggi uchala Buxoro amiri davrida ham yuqori lavozimlarda ishlagan. U qoldirgan qimmatli asarlardan biri «Tarixi Samimiy» deb nomlanib, Chingizxon davrida to 1920 yilgi Buxoro veqyealarigacha bo‘lgan davrlarni I qamrab oladi. Mirzo Salimbek Rossiyaning Buxorodagi mustamlakachilik siyosatini juda salbiy baholaydi. Yuqorida tilga olingan uch muallif ushbu davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli haqida to‘liq ma‘lumot byeradilar.

Yuqorida nomlari zikr etilgan Buxoro tarixchilari tomonidan Buxoro jamiyatida mavjud bo‘lgan og‘ir ijtimoiy tuzum to‘g‘risida ancha yorqin ma’lumotlar olish mumkin. Masalan, Abdurauf Fitrat, jamiyatda islom va uning asosi shariat normalari noto‘g‘ri talqin etilganligini, ruhoniy vakillarining islom va shariat yo‘lidagi nojoiz faoliyati va aholining og‘ir ijtimoiy ahvoli to‘g‘risida ba’zi bir misollarni keltirib o‘tadi. Abdurauf Fitrat ham o‘zining «Hind sayohining hikoyalari» nomli asarida ta‘magir qozi va

jabrdiyda oila misolida voqea tavsilotini bayon etadi<sup>13</sup>. Uning aytishicha, jabrlangan bir ayol o‘z yerini qutqarish uchun bor-yo‘g‘i ikki tanob\* yerini sotib qoziga 2000 tanga, 1500 ming tangani esa oilaga «yordam qilgan» – qozi yordamchilari, rais, shahar boshqaruvchilari va oqsoqolga byeribgina, uni qutqarib olgan.

Ushbu voqea tufayli, ma‘rifatparvar bu davrda qonunning kambag‘allik, qashshoqlikni himoya qilib emas, aksincha, umuminsoniy qadriyatlarga zid faoliyat olib borganligini, «muqaddas qonun nazoratchisi»ning esa adolat qaror toptirishdan ko‘ra, o‘z manfaatini ustun qo‘yganligi bilan izohlaydi.

Bu davrda hatto dinning siyosatga ham ta‘sir o‘tkazganligini, dunyoviy xususiyatlarga ega bo‘lgan hodisalar ham diniy mazmun kasb etganini ko‘rish mumkin edi. Jumladan, davlat boshqaruv borasida faoliyat yuritgan u yoki bu mansabdagi shaxslar, go‘yoki islom va shariat nuqta nazaridan davlat vazifalarini bajarayotganligini ko‘rsatishga uringan. SHariatdan o‘ziga xos zodagonlik huquqi sifatida foydalangan zodagonlar va ulamolar bu orqali o‘zlarining manfaatlarini, zulmga asoslangan faoliyatini himoyalashga uringan. YA’ni amir, bek, amaldorlar, ruhoniylar shariatdan oddiy xalqni ezish, boylik orttirish va umuman, o‘z manfaatlari yo‘lida qurol sifatida foydalanganlar.

Amirdan tortib eng quyi amaldorgacha, shuningdek, islomga da‘vat etuvchi va uning «himoyachisi» bo‘lgan ruhoniylar qatlami ham, islom va shariat qonun-qoidalari mohiyatini o‘zlari to‘liq anglab etmay, davlat tartibi va shariat qoidalarini «buzganlarni» qattiq jazolab, amalda esa o‘zlari o‘z

---

<sup>13</sup> Абдурауф Фитрат. Рассказы индийского путешественника. Перевод А.Н.Кондратьева. – Ташкент, 2007. –С. 67-71.

\* Таноб – 2-2,5 минг<sup>2</sup> метр ҳажмдаги ер майдони.

bilganlaricha ish yuritdilar. SHu o‘rinda, jamiyatda «tartib o‘rnatuvchi»larning tavsifini ma’rifatparvar Ahmad Donish quyidagicha izohlaydi: “Ularga yaxshilab e’tibor qaratsak” – deydi u, – “amir – axloqsiz va qonxo‘r, qozi – uchiga chiqqan poraxo‘r va ta’magir, rais – poraxo‘r va xudosiz, mirshabboshi aroqxo‘r, qimorboz va qaroqchi”<sup>14</sup>.

Ahmad Donish amirlikning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko‘proq tanqidiy jihatdan yondoshgan bo‘lsa-da, darhaqiqat uning bu davrni bor xolicha tasvirlaganiga ishonch hosil qilamiz. Jumladan, aholi hayotidagi ijtimoiy munosabatlarni, ulardagi adolatsizlik, tartibsizlik, axloq me’yorlarining buzilishini e’tirof etarkan, «Amir Muzaffar davrida» – deydi u», - jabr-zulm shu qadar kuchaydiki, masalan, katta bo‘lmagan o‘g‘irlik uchun o‘limga mahkum etilib, odam o‘ldirgan jinoyatchini esa jazolamadilar, eng kichik jinoyat qilgan kishilar qamoqqa tiqildi, shuningdek, eng kam hibbs muddati uch yildan kam emasdi va eng ko‘pi 7 yildan oshmasdi. Agar qamoqxona to‘lib ketsa, hibsdagilar butun bir holicha o‘limga buyurilardi<sup>15</sup>, deb ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, biz ko‘zdan kechirayotgan davrda hukmron tabaqa tomonidan oddiy xalqni ezish, jabr-zulm ko‘rsatish, ikkiyuzlamachilik, ta’magirlik va poraxo‘rliklar avjga chiqqanligini ko‘plab manbalar tasdiqlaydi. Kambag‘al, yersiz dehqonlar va, umuman, oddiy xalqning zo‘ravonlik va zulm, soliq-to‘lovlardan qimirlashga madorlari yo‘q edi.

Buxoro amirligida boshqa o‘zbek xonliklari singari, jamiyatda belgilangan ijtimoiy-me’yoriy munosabatlar jamoat munosabatlari asosida olib borilgan. Jamoat munosabatlari deganimizda kishi yashab turgan

---

<sup>14</sup> Трактат Ахмада Дониша. История Мангитской династи. Перевод. И.А. Наджавофой. – Душанбе: Дониш, 1967. – С. 83.

<sup>15</sup> Ахмад Дониш. Путешествия из Бухары в Петербург. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1960. – С. 45.

mahalla, guzarlar va ularda belgilangan ma'naviy, ahloqiy tartib, qoida va me'yorlar tushuniladi.

Amirlikda quyi boshqaruv bo'g'ini hisoblangan qishloqlar va ulardagi mahalla, guzarlar hisoblangan. Mahalla va guzar jamoalarini oqsoqollar (oqsoqol, ellikboshi) boshqargan. Katta oqsoqollar jamoaning xo'jalik, jamoat va oilaviy ishlarini boshqargan. O'rta yoshdagilar va yoshlar ularga so'zsiz bo'ysungan, ularning maslahat va nasihatlariga amal qilgan, belgilangan odat va mavjud me'yornlarni buzishga hech qachon haddi sig'magan. Yoshi ulug' kishilarning atrofida qilargalarga bunday ta'siri, jamoadagi turg'un qarashlar, urf-odat va marosimlar, axloq me'yornlarini mustahkamlab borgan. Ayniqsa, qishloqdagi umumiy hayot turg'un holatda edi. Bu yerdagi jamoa munosabatlari, shahardagiga nisbatan aholining xo'jalik faoliyati bilan, asosan. yerdan foydalanish, suvdan foydalanish, chorvachilik va hokazolar bilan xususiyatlangan<sup>16</sup>.

Jamiyatda belgilangan har qanday qoida va me'yornlar aholi ijtimoiy sharoitiga to'g'ri kelmasa-da, hech kim ularni inkor etmagan. Aholidan yig'ib olingan soliq-to'lovlar yoki bo'lmasa, majburiy yo'l, ko'prik qurilishlari, hasharlarga jalb qilish va hokazolar shular jumlasidan hisoblanadi.

Zarafshon okrugida bo'lgan G.Grebenkin ma'lumotlariga ko'ra, islom qoidalariga ko'ra, barcha aholi fuqarolik munosabatlarida teng hisoblansa-da, zodagonlar guruhini (amlokdor, zakotchi, amin va h.z.) tashkil etganlar faqat o'z doiralarida ijtimoiy munosabatlarni olib borgan<sup>17</sup>. SHahar va qishloq mahallalarida zodagon kishilar yonida kambag'al qatlamlarga mansub kishilar yashagan. Qishloq jamoasida shunday qonun hukmron ediki, yuqori mavqeli, boy zodagonga quyi qatlam aholi vakillari buysunishi, itoat etishi, tabiiy hol hisoblangan. Islom amallari ta'sirining kuchayib borishi esa bu

---

<sup>16</sup> Народы Средней Азии и Казахстана. В 2-х т. – М., 1962. Т. 1. – С. 314.

<sup>17</sup> Нормуродова Г. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – Б.22.

ijtimoiy tartibni mustahkamlagan. Agar dehqon oilasida musibat yoki xursandchilik bo‘lib qolsa, bunda zodagon ham ishtirok etmasdan qolmagan, u go‘yoki dehqonga hamdardlik yoki xursandchilik bildirgan. Bunday munosabatlar zodagonlar va ruhoniy vakillar mavqeini mustahkamlab borgan.

Buxoro amirligida va, umuman, musulmon davlatlarida shunday qoida va me‘yorlar o‘rnatilgan ediki, bu munosabatlar o‘zga dindagilarning jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy jihatdan tengsizlik holatlarida o‘z aksini topgan edi. Jumladan, biz ko‘zdan kechirayotgan davrda Buxoro amirligida musulmon bo‘lmagan din vakillari (yahudiylar, hindlar) ham yashagan bo‘lib, ular o‘z dinlariga e‘tiqod qilganlar. Ana shundan kelib chiqib, bu milliy guruhlar jamiyatda o‘zlari uchun belgilangan qoida va me‘yorlarga rioya etganlar.

Xususan, jon boshidan olinadigan soliq (juzya)ni ular ko‘proq to‘lashi lozim bo‘lgan, shuningdek, musulmonlar bilan bitim tuzganda, jinoiy ishlar qilganda, islom qonunlariga bo‘ysunganlar. Hindlar sudxo‘r yoki sarrof bo‘lishiga qaramasdan va yahudiylar hunarmand, o‘ziga to‘q kishilar, savdogar bo‘lishiga qaramasdan, ikki milliy guruhning jamiyatdagi ijtimoiy holati kamsitilgan va turli cheklashlarga tortilgan edi. Deyarli barcha g‘arb sayohatchilari va tadqiqotchilarining fikricha, ruslar bosqiniga qadar, yahudiylar «huquqsiz va kamsitilgan» holatda bo‘lganlar. Ayniqsa, chetdan qaragan kishiga yaqqol bir holat, ya‘ni ularning «ajratib turuvchi belgilari – oddiy matolardan tikilgan qora to‘nlar belbog‘i bilan, o‘ziga xos bosh kiyimlarda va boshqa 21-ta ta‘qiq», deb atalgan rioyalarga amal qilingan<sup>18</sup>.

Xususan, Samarqanddagi yahudiylar mahallasida bo‘lgan V.Radlov, bu yerdagi yahudiylar holatini quyidagicha tasvirlaydi: ularga ot yoki eshakda yurish ta‘qiq etilib, musulmon kishini ko‘rganda, unga yo‘l byerilgan. Ular doimo oshkoro tahqirlangan va hech qachon o‘zlarini himoyalash uchun

---

<sup>18</sup> Абрамов М.М. Бухарские евреи в Самарканде. – Самарканд, 1993. – С. 6-7.



shikoyat qila olmaganlar. Ular, odatda, oddiy soliqlar qatoridan 2 rubldan 12 rublgacha bo‘lgan yahudiy solig‘ini ham to‘laganlar<sup>19</sup>.

Ularning uylari musulmon kishilar uylaridan yuqori bo‘lmasligi, musulmonlar yashaydigan xududda joylashmasligi lozim edi. SHuning uchun ular maxsus guzarlarda yashaganlar. Masalan, Samarqand shahrida maxsus yahudiylar yashaydigan Mahallai-YAhudiyon mahallasi bo‘lgan. Mahallani kalontar (oqsoqol) boshqargan<sup>20</sup>.

Yana shunday ijtimoiy guruhlariga yagona dindagi lekin boshqa mazhabdagilarning o‘ziga xos ijtimoiy hayot tarziga ega bo‘lishi edi. YA’ni biz ko‘zdan kechirayotgan davrda islom dinining sunna\* mahzabiga mansub aholi bilan birgalikda shia\* mazhabidagilar ham aholining ma’lum qismini tashkil etgan. Ularning sunna mazhabidagilardan farq qiluvchi jihatlari bo‘lgan. Bu mazhabdagilarni turli milliy guruhlar tashkil etsa-da, diniy nuqtai nazardan bir ijtimoiy guruh hisoblangan. Bu guruhlarning ham qolgan mahalliy aholi singari, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarida yerkinlik bo‘lmagan.

Asrlardan asrlarga o‘tib, saqlab kelingan urf-odatlar, qadriyatlar, marosimlar, bayramlarning xalq tomonidan bajarib kelinishi, xalq turmush tarzining ajralmas tarkibi sifatida asrab kelinayotgan an’analarga sodiqlikni

---

<sup>19</sup> Нормуродова Г. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – Б.24.

<sup>20</sup> Абрамов М. Гузары Самарканда. – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 16.

\*Сунна мазхаби – ( “Сунна” сўзидан олинган бўлиб, асл ислом анъаналари тарафдорлари деган маънони билдиради). Исломнинг Муҳаммад (с.а.в.) давридаёқ шаклланган таълимотининг тўғрилигини, Суннани (ҳадисни) Қуръондан кейинги ислом илоҳиёти ва шариятининг иккинчи манбаи деб тан олган, исломнинг барча анъана ва диний маросимларига амал қиладиганлар.

\*Шиа мазхаби – ( гурух, тарафдор, яъни Алининг гуруҳи, тарафдорлари деган маънони англатади). Али ва унинг авлодини Муҳаммад пайғамбар ( с.а.в.) нинг бирдан бир қонуний ворислари деб тан оладиган тарафдорлар.

yanada mustahkamlagan. Ayniqsa, diniy marosimlarning ommaviy ravishda bajarilishi islom bayramlarining boshqa an'analar bilan umumiy xususiyatga ega ekanligi an'anaviy asoslardan hisoblangan.

Shunday qilib, butun Buxoro amirli hayotining barcha sohalaridagi ijtimoiy, me'yoriy munosabatlar islom va uning asosi bo'lgan shariatning kuchli ta'sirida bo'lgan. Ya'ni jamiyatda belgilangan har qanday qoida va me'yorlar shariat nuqtai nazaridan belgilangan edi. Bu aholining oddiy turmush tarzidan tortib, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarda, yersuvga egalik, jamoa va oila tartiblari, soliq tizimi, aholi kasbi-kori kabilardan tortib to yuqori boshqaruv tizimiga qadar o'z aksini topgan edi. Jamiyatda o'rnatilgan islom me'yorlardan chetga chiqish yoki olib kirilmoqchi bo'lingan har qanday yangilik keskin qarshilikka uchragan. Aholi tabaqalari o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy tengsizlik jihatidan kelib chiqib, oliy tabaqaviylik imtiyozi zodagon qatlam bilan quyi qatlam o'rtasidagi farqni belgilab byergan. Islom va shariatning hayotning barcha sohalarida hukmron kuchga aylanishi, bir tomondan, ijtimoiy, me'yoriy va an'anaviy qadriyatlarning, munosabatlarning barqarorligini ta'minlagan bo'lsa, boshqa tomondan, diniy mutaassiblikning kuchayishi, boshqaruv tizimida zulm va zo'ravonlik holatlarining kuchayishi, yerga egalik munosabatlarida eski usulning saqlanishi, ishlab chiqarish munosabatlarining past darajada bo'lishi, jamiyat ijtimoiy tizimida tabaqalanish jarayonining turg'un saqlanishi kabi salbiy holatlar aholi va jamiyat hayotining taraqqiyotdan orqada qolishiga sabab bo'ldi.

## **1.2. Yer-suvga egalik munosabatlari, ishlab chiqarish va savdo munosabatlarida islom normalarining o'рни**

Aholi turmushining muhim masalalaridan biri yerga egalik munosabatlari hisoblangan. Xiva va Qo'qon xonliklari singari Buxoro amirligida ham yer egaligining asosiy uch shakli mavjud edi: davlat yerlari (mamlaka, amlok, podshohi), xususiy yerlar (mulk, mulki-xurri-xolis) va vaqf yerlaridan iborat edi. Oddiy xalq (raiyat, fuqaro)ning yerga egalik huquqlari cheklangan bo'lib, bu ularning ijtimoiy sharoiti va imkoniyatining yo'qligida edi. Shariatga muvofiq, xususiy yerlar sotilgan va sotib olingan, sovg'a qilingan va myerosiy o'tilgan. Davlat yerlarining xususiy yerlarga aylantirilishi dehqonlarning zodagonlarga bo'lgan qaramligini oshirishiga ta'sir etmay qolmagan.

Manbalarda, suvga egalik qilish munosabatlari ham, qat'iy shaxsning xususiy daxlsizligidan kelib chiqib olib boriladi, deb ta'kidlanadi.<sup>21</sup> YA'ni, shariatga muvofiq, suv jamoa mulki hisoblanib uni sotish yoki sotib olish ta'qiqlangan bo'lsada, hukmron qatlam bu qoidaga e'tiborsiz bo'lgan holda, undan o'z manfaatlari yo'lida boyish, oddiy fuqorolarni ezish manbasi sifatida ham foydalangan. Zodagonlik huquqidan foydalangan qatlamlar suvdan shaxsiy manfaatdorlik huquqi sifatida foydalanib, oddiy xalqning suvdan yerkin foydalanishiga yo'l byerilmagan. Umuman, yuqori tabaqa vakillarini mulkiy jihatdan quyi qatlamdan ustun bo'lishi, ularning shaxsiy egalik huquqlarini kengaytirib borgan. ya'ni ularning qo'lida karvonsaroylar, do'konlar, ustaxonalarning to'planib borishi bilan birgalikda, ularda faoliyat

---

<sup>21</sup> Нормуродова Г. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – Б.24.

yuritgan hunarmandlar va mayda savdogarlar ham bu qatlamga qaram bo‘lib borgan<sup>22</sup>.

Shariat qonun-koidalari asosida amlok yerga ega bo‘lgan xo‘jayin 3 yil davomida yerdan foydalanmay, uni tashlab ko‘ysa, shu yerdan hosil olmagan uchun xiroj solig‘i to‘lamas, buning natijasida amlokdor yerga bo‘lgan egalik xukukini yo‘kotishi, xon amaldorlari bu yerni egasiz yer xisoblab, uni shariat konunlari asosida boshka kishiga olib byerishi mumkin edi. Amlok yer egapari barcha soliklarni to‘lab borish bilan birga, bu yerda uzoq vakt o‘tirib kolgani uchun xususiy mulkdor bo‘lish xukukini ko‘lga kiritib, u amlok yerlarni sotish, myeros qilib qoldirish yoki in‘om etish xukukiga ham ega bo‘lardi. Shu tariqa XIX asr o‘rtalariga kelib xonlikdagi amlok yerlar ham deyarli mulkiy yerlarga aylangan edi.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida amlok yerlar qisqarib ketgani bois, mulkiy yerlarga xam soliklar solina boshladi. Okibatda amlok egalari bilan mulkiy yer o‘rtasidagi farqlar asta-sekin yo‘kolib bordi. Mulkiy yerlar o‘z navbatida to‘rt qismga bo‘linardi. Bulardan birinchisi “mulki hur” yoki “mulki xolis” deb nomlanib, bunday yer egalari o‘zlarining xon davlati oldidagi aloxida xizmatlari uchun soliklardan ozod bo‘lardilar. Mulkiy yerlarning ikkinchi turi “mulki ushr” bo‘lib, undan olingan xosilning o‘ndan biri davlatga soliq tariqasida to‘lanardi. Xonning ruxsati bilan qo‘rik va bo‘z yerlarga suv chiqarib, yangi yer ochgan ayrim kishilarning yerlari xam mulki ushr xisoblanib, xosilning o‘ndan bir kismi xonga byerilar edi. Mulkiy yerning uchinchi turi kurol kuchi bilan ko‘shib olingan yerlar bo‘lib, u “mulki xiroj” deb atalgan. Bunday yerlar hosilidan beshdan bir yoki to‘rtidan bir kismi xon xazinasiga solik tarikasida to‘lanardi. Mulkiy yerning to‘rtin- chisi “mulki vaqf” bo‘lib, bu diniy muassasalarga in‘om etilgan yerlardir.

Amirlikda mulkiy yerlar turli yo‘llar bilan yuzaga kelardi. Masalan,

---

<sup>22</sup> Нормуродова Г. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – Б.22.

suv chikarib o'zlashtirilgan ko'rik yerlar mulkiy yerlar bo'lib kolardi. Xon tomonidan xarbiylarga, ruxoniylarga, xon avlodlariga, beklarga, amaldorlarga va boshqalarga in'om kilingan yerlar ham mulkiy yerlar sanalardi. Bu yerlar xonning yorlikdari bilan konunlashtirib byerilardi. Mulkiy yer egalari bir kancha imtiyozlarga ega bo'lib, bunday yerlar soliklardan ozod kilinishi mumkin edi. Lekin amaldagi xon taxtdan ketib, yangi xon ko'tarilgach, u eski xon tomonidan byerilgan mulkiy yerlarni egalaridan tortib olib, o'z tarafdorlari yoki avlodlariga byerishi takrorlanib turardi. Bundan tashkari, mulkiy yer egalari o'zlarining yerga bo'lgan egalik huquqini xar bir yangi xon davrida yangilab olishlari shart edi. Bundan tashqari urush paytida yoki xonlar mablagga muxtoj bo'lgan davrda mulkiy yerlarga byerilgan imtiyozlar bekor kilinib, solik miqdori oshirilardi.

Bu davrda mulkchilik shakllaridan biri vaqf mulki hisoblangan. Vaqf hujjatlarini tahlil etish orqali, bu davrdagi ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyatdagi mavqei, mulkiy holati darajasi qay ahvolda bo'lganligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Jumladan, bir zodagon xo'jaligida qancha miqdorda yer mulklari, bog'-rog'lari, hunarmandchilik ustaxonalari bo'lganligi bilan birga, bu mulklarda imkoniyati cheklangan dehqon, hunarmand va qullarning ishlatilganligi va ularning holati to'g'risida xulosa chiqarishga imkon byeradi. Bunday yerlar ko'pincha yersiz dexkonlarga ma'lum shartlar bilan ijaraga byerilib, undan kelgan foyda bilan diniy muassasalarning extiyojlari qoplangan. Vaqf yerlari xonlarning ruhsati va shariat qonunlari asosida yorliklar bilan tasdikdanar, vaqfnomalar avloddan-avlodga myeros bo'lib o'tardi.

Ayniqsa, vaqf yerlarida ishlagan dehqonlarning ijtimoiy holati to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Bu davr manbalarida shariat me'yorlari oddiy fuqaro mehnati orqali zodagonlik huquqi manfaatini himoya etishga imkon byerganligini, qayd etadi.

Amirlikda sug'oriladigan yer maydonlarining katta bir kismi ruhoniylar va diniy muassasalar qo'lida to'plangan edi. Masjid, madrasa va boshka diniy muassasalarning deyarli xammasi vaqf yeriga ega edi.

Aholining ko'chmas va ko'chma mulklari shaxsiy egalik huquqi sifatida shariat qonunlari bilan belgilab qo'yilgan. Har bir kishining mehnati va xizmati orqali qo'lga kiritilgan mulk shariat nuqtai nazari bilan himoyalangan. Har qanday dastlabki mulk, egasining roziligisiz hech kimning qonuniy mulkiga aylanmagan. Birovning mulkini o'ziniki qilib olish gunoh sanalgan va mulk egasi roziligisiz mulkning ikkinchi qo'lga o'tishi noqonuniy hisoblanib, ta'qiqlangan<sup>23</sup>.

### **Ishlab chiqarish, savdo munosabatlarida islom normalari.**

Aholi hayotida diniy nuqtai nazardan belgilangan ijtimoiy-me'yoriy munosabatlar aholi kasb-korida ham mujassam bo'lgan. Jumladan, bu hunarmandchilik kasbining axloqiy me'yorlarini belgilab byergan risolada\* o'z ifodasini topgan edi. Risola – o'ziga xos axloqiy-diniy qo'llanma bo'lib, ustadan o'rnatilgan odat va an'analarga rioya etishni talab qilgan. Hunarmand ham bu majburiyatni buzishga haddi sig'magan, chunki biron bir joriy etilgan yangilik ana shunday qoida va ruhoniylar qarshiligiga duch kelishi mumkin edi<sup>24</sup>. Tadqiqotchilardan birining fikricha, risolada buyurilgan ijtimoiy-me'yoriy xususiyatga ega bo'lgan yo'riqnomalarga, misol uchun, buyurtmachi va xaridorlarga haqqoniy munosabatda bo'lish muhimligi, shogird va hunarmand ustaga bo'lgan munosabat, «yaxshi insonlarga itoatda

---

<sup>23</sup> Барон Горнау. Особенности мусульманского права // Туркестанский сборник. Т. 410. – С. 7.

\* Рисола – хунармандчилик устахоналардаги тартиб-қоидалар, шу касбни эгаллаганларнинг ахлоқий хусусиятлари ва мажбуриятлари, уста ва шогирд ўртасидаги муносабатлар акс этган устав, рисола.

<sup>24</sup> Нормуродова Г. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – Б.24.

bo‘lish» talabi, «chin vijdonli bo‘lish», «sabrli va adolatli bo‘lish» kabilar kirgan<sup>25</sup>.

Manbalarda ta’kidlanishicha, mazkur davrda davlat tomonidan aholidan olingan soliqlar (zakot, xiroj, juz’ya) ham diniy ahamiyat kasb etib, bular olloh yo‘liga majburiy xayr-sadaqa (kambag‘al, etim-esirlar foydasiga, muqaddas urushlar olib borish uchun va h.z) sifatida olingan<sup>26</sup>. Boshqa manbada ham, shariat tomonidan belgilangan ana shunday soliqlardan biri – zakot bo‘lib, bu soliq 1/40 miqdorda turli xildagi mahsulotdan olingan; xiroj – yer solig‘i 10% miqdorda olingan; juz’ya – musulmon bo‘lmaganlardan olingan bu soliq turi, manbalarda kambag‘allardan 12 dirham ( bir dirhamdan oyiga), o‘rta hol kishilardan 24 dirham (oyiga 2 dirhamdan), boylardan 48 dirham yiliga (yoki 4 dirhamdan oyiga) olingan. Xonlikda juz’ya solig‘i gohida dirham o‘rniga kumush tangada olinganligi aytiladi<sup>27</sup>.

Bozorlarda tartib o‘rnatish, tarozidan urib qolmaslik, oldi-sotdi ishlari to‘g‘ri bo‘lishini nazorat qilish uchun aminlar qo‘yilgan edi. Lekin aslida, ular bunday tartiblarga teskari faoliyat olib borgan. Masalan: bir beva ayol bozorga kalava ip olib kelib, uni uch mis chaqaga sotsa, shundan ikki chaqasi aminga byerilgan. Agar yana kimdir bir qancha pud keladigan o‘tin, shoxshabba olib kelib va uni 3 dirhamga\* sotsa, shuning ikki dirhami aminning haqi hisoblangan<sup>28</sup>.

Buxoro amirligiga kelgan va bu yerdagi islom va shariat, huquqiy va axloqiy qoidalar va me‘yorlarda salbiy xususiyat aks etganligini ko‘rgan A. Vambyeri ham shunday deb yozadi: «Bu yerda odam faqat insonday ko‘rinsa bo‘ldi, uning ko‘nglida nima borligi bilan hech kimning ishi yo‘q. Islom

---

<sup>25</sup> O‘sha asar., – B.30.

<sup>26</sup> O‘sha asar , - B. 25.

<sup>27</sup> Семенов А.А. Очерки поземельно-податного и налогового устройства Бухарского ханства // Труды САГУ. – Ташкент, 1929. Вып. 1. – С. 53-54.

<sup>28</sup> Трактат Ахмада Дониша. История Мангитской династии... – С. 71.

shariat qoidalari, amallarini yuzaki tarzda bajarib, aslida esa johil, zulmkor bo‘lib, jazodan qochib qutulib yurish ham mumkin bo‘lgan. SHuningdek, Buxoro va Samarqand islom dini markazlari hisoblansa-da, – «deydi u», – XIX asr o‘rtalariga kelib, bu yerda diniy mutaassiblik shu qadar kuchayib ketdiki, bu ezgulik va insoniylikdan ko‘ra, ko‘proq johillik, adolatsizlik, insoniy huquqlarning poymol etilishi kabi salbiy holatlar bilan kechdi»<sup>29</sup>.

---

<sup>29</sup> Вамбери А. Очерки Средней Азии. – М.: А. И. Мамонтова, 1868. – С. 174.



## **2-BOB. BUXORO AMIRLIGI MADANIY HAYOTIDA ISLOM DININING ROLI.**

### **2.1. Maktab va madrasalar – islom ta’limotining o‘choqlari.**

Yirik islom markazlaridan bo‘lgan Buxoro amirligida xususan Buxoro, Samarqand kabilar ma’rifat o‘choqlari sanalib, ularda ta’lim maskanlari va o‘qiydiganlar soni ham anchagina bo‘lgan. Jamiyatda aholiga islomiy va ma’rifiy bilimlar byeruvchi diniy qatlamlardan biri jamiyat ijtimoiy pog‘onasida na zodagonlar va na quyi qatlam vakillarini tashkil etgan va asosan, oraliqdagi o‘ziga yarasha ziyolilar guruhini tashkil etganlarni asosan – mudarris, mullalar tashkil etgan. Aholiga diniy ta’lim byerib borishda **maktab** va **madrasalar** asosiy o‘rin egallagan.

Maktablarning ko‘pchiligi shahar va qishloqlardagi har bir mahallada bo‘lgan. Bu davrdagi ta’lim to‘g‘risida ma’lumot byeruvchi manbalarga ko‘ra, aynan maktablar orqali o‘sib borayotgan avlod ongiga islom qonun-qoidalarini singdirilib, shariat amallarini bajarishga o‘rgatilgan. Maktablarda dasturlar bo‘lmagan, o‘qituvchilar pedagogika doirasida biron bir tushunchalarga ega bo‘lmagan. O‘qitish, asosan, tushunish orqali emas, balki yod olish orqali o‘zlashtirilgan. Uzoq vaqt mobaynida murakkab arab alifbosi yod oldirilgan. O‘qitishning asosiy mundarijasi «Qur’on»ning qismlari va «Chahor kitob» («To‘rt kitob»)ni o‘rganishdan iborat bo‘lgan. Qur’ondan so‘ng “Chahor kitob” to‘rt qismdan: “Xok” – tahorat, namoz qoidalarini tushunish; “Bidon” – diniy bilish; “Kaliknabi” – naqlar izohi; “Hamdekat” – shariatdan ko‘chirmalardan iborat bo‘lgan

Yana, shuningdek, Xo‘ja Xofiz, Mirzo Bedil, Alishyer Navoiy, Fuzuliy kabilarning asarlari ham o‘rganilgan. Maktab o‘qituvchisi har bir o‘quvchidan uning oilaviy sharoitiga qarab to‘lov puli olgan, ya’ni uning

oilaviy sharoitiga qarab haq olingan, haftalik belgilangan kunda domlaga non, uzum va boshqa shirinliklardan iborat dasturxon ham keltirib turilgan<sup>30</sup>.

Bu davrda xususiy maktablar ham bo‘lib, ularni maktabdor o‘z uyi yoki ijaraga olingan uylarda ochilgan. Barcha maktablar bolalarning ota-onalari mablag‘lari hisobiga faoliyat ko‘rsatgan. Maktabdagi ta‘lim-tarbiya ko‘proq maktabdorga bog‘liq bo‘lgan. Domla xat-savodga moyil bo‘lsa, uning maktabida xat-savod o‘rgatish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, ekan<sup>31</sup>.

Shaharlarda ham bunday xususiy maktablar ham bo‘lib, ular uy yoki ijaraga olingan uylarda ochilgan bo‘lib, o‘qituvchi har bir o‘quvchidan alohida to‘lov puli yiliga 10 tangaga yaqin olgan<sup>32</sup>. Umuman shahar va tumanlarda o‘qitish saviyasi turlicha bo‘lib, past, o‘rtacha va yuqori saviyadagi muhit hukm surgan.

Diniy maktablardagi kitoblar asosan arab va fors tillarida bo‘lib, nafaqat ta‘lim oluvchilar uchun, balki ko‘pchilik o‘qituvchilar uchun ham tushunarsiz bo‘lgan. SHuning uchun, ajab emaski, ularni o‘rganib borish uchun o‘quv yilining uzoq vaqti qamrab olingan. Olti-etti yillik o‘qishdan so‘ng esa, bolalar o‘zlariga tushunarsiz bo‘lgan she‘rlarni qiroat bilan o‘qiganlar, lekin har doim ham o‘qishni va ayniqsa o‘zishni o‘rganmaganlar. Agar ota-onalari farzandining bilimi yaxshi bo‘lishi yoki yuqoriroq mansabni egallashini haxlasa yana madrasada o‘qitganlar.

Qizlar uchun ham boshlang‘ich maktablar bo‘lib, ular, asosan, shaharlarda mavjud bo‘lgan. Bu maktablarga o‘ziga to‘q tabaqalar savdogarlar, ruhoniylar va boshqa ijtimoiy sharoiti yaxshi bo‘lgan xonadon farzandlari qatnagan. Darslar o‘qituvchi ayol – otinbibi uyida olib borilgan.

---

<sup>30</sup> Остроумов П.П. Исломоведение. – Ташкент, 1914. – С. 110-111.

<sup>31</sup> Болтаев С. Чоризм хукмронлиги даврида - ислом. – Наманган, 2005. – Б. 5.

<sup>32</sup> Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатам. – СПб., 1911. Т. II. – С. 3.

Shaharlardagi bunday maktablarning soni umumiy maktablarning to'rtidan bir qismiga to'g'ri kelgan. Qishloq joylarda esa ular qisman uchrab turgan.

Ayollar maktabida arab asarlarining parchalari (Qur'on) o'rganish bilan kamroq shug'ullanilgan. Asosan, fors-tojik va turk tilidagi diniy she'riy asarlar o'rganilgan. Qizlarga "turli xil" sevgi yozishmalarni yozishga o'rganmasligi uchun ularga yozishni o'rgatmaganlar. Qizlar o'qishni asosan 7 yoshdan boshlaganlar.

Maktab va madrasalarning moddiy ehtiyoji asosan vaqf mulklaridan tushgan daromad hisobiga qoplangan. Vaqfdan kelgan daromad asosan, dinning iqtisodiy qudratini mustahkamlash ishlariga sarflangan. Vaqf mulklarini boshqarish mutavallilarning vazifasi bo'lib, ular diniy muassasalarning boshqa ishlariga aralashmagan, faqat xo'jalik ishlari, ya'ni vaqf mulkini ijaraga byerish, olingan daromadni vaqfnomada ko'rsatilgan tartibda sarflash, vaqf mahkamalarini ta'mirlash ishlarini bilan shug'ullangan. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, vaqf daromadlaridan keladigan 1/10 ulushini mutavallilar olgan, lekin shunga qaramay, ular shu bilan qanoatlanmay, o'z mansabini sui'stemol qilib turganlar<sup>33</sup>.

Buxoroning milliy taraqqiyparvarlaridan bo'lgan Abdurauf Fitrat o'zining "Bayonoti sayyohi hind" asarida tashqaridan kuzatgan hind sayyohi nomidan buxoroliklar hayoti haqida Fitrat o'z mulohazalarini bildirgan. Uning fikricha, ruhoniyyat vakillarining qoloq va nodonligi shariat va umuman islom xulqiy me'yorlarini noto'g'ri talqin qilishi, buxoroliklar hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, Buxoro butun jahonga buyuk ilm kishilarini vatani, olimlar, shoirlar, tabablarni etkazib byergan maskan sifatida mashhur bo'lgan. Biroq, Buxoro va umuman, Turkiston "ilmlarning

---

<sup>33</sup> Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе // Туркестанский сборник. – СПб., 1874. Т. 90. – Пр.14.

yorqin yulduzi, insoniyat kitobining nurafshon sahifasi edi, uni nodonlik botqog‘iga botirdilar”<sup>34</sup>.

Va u bunda Qur’anni o‘z hoxishicha talqin etuvchi Buxoro ruhoniyatini ayblaydi. Fitrat keltirgan bir qator misollar – afsunlarga asoslangan tibbiyot ahvoli, xizmatga maosh to‘lash tizimi bo‘lmagan va hamma narsa aholidan nohaq yig‘imlar asosiga tayangan davlat boshqaruvchi, adolat, da’vogar cho‘ntagidan pul bilan o‘lchanadigan sud ishlari matni ko‘r-ko‘rona o‘qish va yodlash bilan belgilangan ta’lim va boshqa soha vakillari bilan uchrashuvlari qiziqarli hikoya tarzida keltiriladi.

Buxoro doimo ta’lim-tarbiy vatani bo‘lgan, vaqf tizimi uning qiyinchiliksiz faoliyat yuritishini ta’minlagan. “Bayoni sayyohi hindi” yozilgan 1913 yilga kelib, Buxoroda 200 ta oliy, o‘rta va quyi bo‘g‘indagi madrasa bo‘lgan. Fitrat 3776000 tanga hisobida vaqf mablag‘i bilan ta’minlangan 72 madrasa nomini keltiradi<sup>35</sup>. Bu o‘sha zamonda ulkan mablag‘ edi, biroq uni kichik qismigina tegishli joyiga sarflanib, asosiysi uni taqsimlovchilar cho‘ntagiga tushgan.

Hujralarni sotishdan mudarrisli o‘rnigacha – hammasi pul turishi Buxoro uchun oddiy hol edi. “Olamga to‘rt yuz olamni hadya etgan Buxoroi SHarif shunchalik mustahkam ilmiy kuchga ega bo‘lib edi, oh. Buyuk badbaxtlik bilan iqrор bo‘lamanki, hozir bu madaniyat quyoshining osmoni, bu insoniyat jannati, bu fozillar dunyosining ma’mur xonadoni, bu ma’rifat jahonining darsxonasi taraqqiyot uchun barcha vositalarga ega bo‘lsa ham, jaholatning asl makoni, xorlik zanjirining asirligicha qolmoqda. Tirikchilik

---

<sup>34</sup> Фитрат А. Ҳинд сайёҳининг қиссаси. “Шарқ юлдузи”, 1991, №8. – 15 б.

<sup>35</sup> Фитрат А. Ҳинд сайёҳининг қиссаси. “Шарқ юлдузи”, 1991, №8. – 15 б.

uchun barcha vositali bo‘lishiga qaramasdan. YOqasini ajal panjasiga topshirgan”<sup>36</sup>, - yozadi Vatan dardi bilan yongan Fitrat.

Buxoro amirligida ham boshqa o‘rta asr xonliklari singari ilm olishning keyingi bosqichi – oliy va o‘rta ta’lim dargohlari hisoblangan **madrasalar** bo‘lgan. Madrasalarda faoliyat yuritgan o‘qituvchilarni 3 toifaga bo‘lish mumkin edi. *Birinchi toifa*- madrasadagi barcha o‘quv bosqichlaridan o‘tgan bo‘lmasa-da, lekin qobiliyatli bo‘lib, ular yangi kelganlarga dars byerishni boshlagan o‘qituvchi yordamchilari bo‘lgan.

*Ikkinchi toifa* - kichik o‘qituvchilar bo‘lib, bularning daromadlari sarflangan xarajatlariga etmagan. Ularni ham o‘qituvchilik kasbi etarli ta’minlamagan va ular yuqori darajaga ko‘tarilishi uchun fidokorona mehnat qilganlar.

*Uchinchi toifaga* - ko‘p yillar mobaynida tajriba orttirgan katta o‘qituvchilar, mudarrislar kirib, ular ko‘p yillar davomida dars byerish bilan shug‘ullanib, dong qozongan va shu bois ham o‘z shogirdlari, o‘quvchilari tomonidan yaxshi ta’minlangan edi<sup>37</sup>.

Biron bir o‘qituvchi o‘quvchilarning faqat u bilan shug‘ullanishi va faqat uning ma’ruzalarini tinglashga majbur qila olmagan. O‘quvchilar o‘z shaxsiy hoxishlariga ko‘ra istagan o‘qituvchini tanlaganlar yoki boshqa madrasa o‘qituvchilariga borganlar. Agar ular yoqmasa to ko‘ngliga ma’qulini topmaguncha, yangilariga boravyerganlar. SHuning uchun, o‘qituvchilarning madrasa bilan bog‘liqlik tomoni faqat, vaqfdan keladigan daromad, to‘lovdan o‘z moddiy ehtiyojini qondirish tufayli turmush tarzini olib borgan.

---

<sup>36</sup>O’sha asar.

<sup>37</sup> Айни Садриддин. Бухара (Воспиминания). В 2-х кн. – Душанбе: Ирфон. 1985. Кн. 1. – С. 143-144.

Vaqfdan tashqari o'qituvchining asosiy daromadi talabalar byeradigan hadyalardan ham iborat bo'lgan. SHuning uchun, o'qituvchi o'ziga ko'proq talabalarni jalb etish, ularning iltifotiga va hurmatiga sazovor bo'lish kabi manfaatdorlikka intilgan.

Ko'zga ko'ringan mudarrisning daromadlari yirik bo'lgan. Ba'zilari o'qituvchilik bilan qanoatlanmay, muftilik, shariat qoidalarini targ'ib qiluvchilik bilan shug'ullanib, buning uchun ham qo'shimcha daromad olganlar.

O'sha davrlarda bug'doy pudini etmish besh tanga turganda, o'quvchi «Sharxi Mulla»\*ni o'rganishni boshlaganda o'qituvchiga etmish besh tangadan ikki so'mgacha byergan. Nasafiyning «Aqoid»\*diga o'tganda esa 4 so'mgacha byergan. Shunday qilib, o'quvchi qancha ildamlab ketavyorsa, o'rganish ham unga shuncha qimmatga tushgan. «Mulla Jalol»ni o'rganishni boshlaganda o'qituvchiga 20 so'mgacha byerganlar. Madrasada ta'lim yakunidayuz so'mdan ikki tangagacha - esa, 15 so'mdan 30 so'mgacha yoki qirq pud bug'doyga teng tarzda to'laganlar<sup>38</sup>. Sovg'a sifatida qabul qilingan bu to'lovlarning miqdori, o'quvchining mabalag'idan kelib chiqqan va aksincha, o'quvchilarga bo'lgan e'tibor ham, sovg'aning miqdorini belgilagan.

Madrasa talabalari o'z toifalariga qarab bo'linib yashaganlar. Xususan, Samarqand viloyati madrasalaridagi talabalar uch toifaga; quyi, o'rta va oliyga bo'lingan. Madrasada talabalarga byeriladigan stipendiya miqdori yuqori toifadagilar uchun 15 dan 35 so'mgacha (rubl miqdorida) va quyi toifa uchun esa 4 dan 12 so'mgacha olingan<sup>39</sup>. Viloyat madrasalarida

---

<sup>38</sup> Айни Садриддин. Бухара (Воспиминания)... – С. 143-144.

\* «Ақоид» – Нажмиддин Абухафс Насафининг (1068-1112) илоҳийётга оид асари.

o‘qish usuli uch bosqichga bo‘lingan. O‘quv yili oktyabr oyida boshlanib, aprel, may oylarida tugallangan. Ramazon va Qurbon hayitlarida ikki haftalik ta‘tillar byerilgan. Talabalar ko‘p hollarda madrasa hujralarida yashagan. Talabaning puli bo‘lsa, hujrani sotib olgan, agar puli bo‘lmasa uni ijaraga olgan.

Madrasalarda o‘rganiladigan fanlar islom dini bilan bog‘liq tarzda olib borilgan. Madrasaga kelgan tinglovchiga dastlabki kunlardanoq bu uqtirib borilgan. Xususan, darslar islom asosida savol va javoblar shaklida yozilgan musulmonlik kitobi – “Aval-i-ulum” (“Fan asosi”) ni yod olishdan boshlangan. So‘ngra arab morfologiyasini “Muizzi” va “Zinjana”, sintaksisni esa “Avalil” kitoblari bo‘yicha o‘rganilgan. Bu kitoblardan arab tilidagi misollar va ularning tojik tilidagi tarjimalari yod olingan. Keyin arab sintaksisi to‘liq izohlangan “Qofiya” kitobiga o‘tilgan. Madrasalarda bu kitoblar o‘qituvchi yordamchilari rahbarligida o‘rgatilgan. Darslar arab, fors va turkiy tillarda olib borilgan. Bu darslarning o‘tilishiga uch yil ketgan.

Bu darslardan so‘ng Abdurahmon Jomiyning “Sharhi Mulla”<sup>\*</sup> kitobiga o‘tilgan. Bu vaqtda endi talaba tajribaliroq o‘qituvchidan dars ola boshlaydi. Bir vaqtning o‘zida ilmi toliblar o‘qituvchi yordamchilari bilan birgalikda “Qofiya va mantiqqa oid bo‘lgan “Shamsiya”ni<sup>\*</sup> o‘rganganlar.

Shuningdek, talabalar fiqh-huquq masalalari bilan ham mashg‘ul bo‘lganlar va islom qonunshunosligidan saboq olganlar. Bu o‘quv jarayonitga besh yil ketgan. “SHarhi Mullo”dan so‘ng, umumdunyoviy va ta‘limiy kitoblar o‘tilgan. “SHamsiya” sharhi hisoblangan “Hoshiyai qutbi”<sup>\*</sup>ni o‘rganishga bir yil ketgan. Bu vaqt mobaynida Nasafiyning “Aqaid” asari

---

<sup>\*</sup>“Мулла Жалол” – “Ақоид” асарига Жалолиддин Доввони (1502 вафот этган) томонидан ёзилган шарҳ. Жалолиддин томонидан ёзилган шарҳ арабча асарни тушунишни анча енгиллаштирган.

<sup>39</sup> Нормуродова Г. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – Б.26.

ham o‘rganilgan. Musulmonlik aqidalari to‘g‘risidan bu fan fanlarning oliysi hisoblangan. Shundan so‘ng, “Aqid” asariing sharhi bo‘lgan bu kitob o‘rganilgan bo‘lib, uning muallifi Allam Taftazaniy edi. So‘ngra yana tabiiy, aniqrog‘i g‘ayritabiiy fanlarni bayon etuvchi “Hikmat ul-ayn” ham ikki yil o‘rganiladi. Nihoyat yana ikkiyil “Mulla Jalol” – ilohiyotga oid bo‘lgan kitob o‘rganilgan<sup>40</sup>.

Madrasalarda shuningdek, arab tiliga oid morfologiya va sintaksis, mantiq, notiqlik, tabiiy fanlarni ilohiyotlik nuqtai nazaridan tushunish, yuvinish, ro‘za, dafn etish, Makkani ziyorat qilish sotish va sotib olish tartib-qoidalari, quldorlik va qulni ozod qilish qoidalari, nikoh va ajralish qoidalari va boshqa shu singari shariat qoidalari, normalari, shuningdek davlat va diniy faoliyatga doir bilimlar o‘rganilgan.

Shunday qilib, madrasalarda ta‘lim olish jarayoni o‘n to‘qqiz yilga qadar cho‘zilgan edi. Lekin, o‘n to‘qqiz yillik ta‘lim hamma vaqt ham yaxshi samara byermagan. Ko‘pchilik madrasani tugatib ham savodli bo‘lib chiqmagan, chunki ular tushunish orqali emas, balki ko‘proq yodlash bilan cheklangan edi. SHuningdek, fanning ilm bilan hech qanday bog‘liqligi bo‘lmagan, balki faqat islom dini mohiyati bilan yo‘g‘rilgan edi. Bu esa diniy mutaassiblikning kuchayishining oqibati edi. Bunday ta‘lim tizimi butun mamlakatda ishlab chiqarish taraqqiyotiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatgan edi.

Butun O‘rta Osiyoda bo‘lganidek, madrasa binolari ikki yoki bir qavatli bo‘lib, ko‘plab hujralardan tashkil topgan. Har bir hujrada 3-4 talaba yashagan.

---

\*«Шархи мулла» – Абдурахмон Жомийнинг бу китобида араб синтаксиси бўлган «Қофия» шарҳланган.

\* “Шамсия” – файласуф Нажмиддин Умар ал-Қазвини ал-Котиби (1276 йил вафот этган) нинг мантиққа оид китоби. Тўлиқ номи “Ар-рисолат аш-шамсия фи-л қаваид ал-мантиқия” (“Мантиқ қоидаларига оид куёшли рисола”).

<sup>40</sup> Айни Садриддин. Бухара (Воспиминания)... – С. 138-139.



Amir SHohmurod davrida Buxoro va Samarqand madrasalari qayta tiklanib borilgan. Jumladan, uning: “Har qaysi talaba o‘z hisobi va mehnati bilan hujralarni ta‘mirlab, tartibga solsa, shu talaba shu hujraning egasi hisoblanadi. U hujrani sarflagan harajatlarini qaytarib olish evaziga boshqa kishiga byerishi mumkin” degan buyrug‘idan so‘ng, shu vaqtdan boshlab hujralar bir o‘quvchidan ikkinchi talabaga ketkazilgan to‘lov hisobiga byerib borish odat tusiga kirdi. Hujralarni faqat talaba emas, balki har kim ham sotib olishi mumkin edi.

Agar talabaning puli bo‘lsa, hujrani sotib olib unga joylashgan. Agar sotib olishga puli bo‘lmasa, uni ijaraga olgan. Ba‘zida naqd puli bo‘lmasa, talaba hujrani garovga qo‘yib va xo‘jayinga ma‘lum foizini byerib borgan.

Madrasada ba‘zida ilmga taaluqli bo‘lmagan kishilar xususan – hunarmandlar, savdogarlar va boshqa kishilar ham yashab, bu yerda hayot kechirishni yerkin va tinch de hisoblaganalar.

YUqoridagi ta‘lim muassasalaridan tashqari, islom dinini targ‘ib etadigan va mustahkamlaydigan – **qorixona** va **daloilxonalar** ham o‘ziga xos ta‘lim maskanlari hisoblangan. Unga maktabni tugatgan 10 yoshdan katta bo‘lgan qabul qilingan. Bu maktablarda qoriboshi boshchiligida Qur‘on suralari yod olingan, daliyolxon boshchiligida esa arab tilidagi duolar – doliyol va hayrotlar o‘rganilgan. O‘qish jarayoni 2-3 yil davom etib, bunday maktablarni bitirganlar aholi o‘rtasida uncha ahamiyatli bo‘lmasalarda, bunday maktablarni Buxoro amirligining barcha shaharlarida uchratish mumkin edi<sup>41</sup>.

Yuqorida zikr etilgan ta‘lim dargohlarida mudarris, mullo, talabalardan tashqari azonchi (muazzin), xatib, farrosh, sartarosh, maksurxon kabilar ham faoliyat olib borganlar. Mudarris, mulla va talabalardan tashqari, bu davrda

---

<sup>41</sup> Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатам. – СПб., 1911. Т. II. – С. 6-7.

ziyolilar qatlami tarkibiga, shuningdek, turli ko‘chirma ishlar va kotiblik vazifasini bajarib yuruvchi mirzalar ham kirgan. Ular amir saroyi, bek, amlokdor va boshqa ma‘muriyatlardagi mansabdorlarning devon ishlarini bajargan.

## 2.2. Islom mafkurasining ma'naviy hayotdagi o'rni.

Jamiyat bo'g'ini hisoblangan oilada ham islom dini ta'siridagi jamoat tartib va qoidalari hukmron edi. Buxoro amirligi aholisining turmush tarzini o'rgangan rus ma'muri V.Nalivkinning qayd etishicha, 7-8 yoshdan boshlab, har qanday oila a'zosining harakati, o'y-fikri, hissiyotlari mavjud o'rnatilgan qoidalardan chetga chiqmasligi lozim edi<sup>42</sup>.

Yerkak oila boshlig'i hisoblangan va barcha masalalar faqat u orqali hal qilingan. O'rta Osiyo ayollarining hayoti, faoliyati, yashash tarzi so'ngi o'rta asrlardan boshlab o'lkaga sayohat qilgan xorijlik sayyoxlarning qiziqarli mavzularidan biri bo'lgan. Chunki, bu yerda ayolning jamiyat va oiladagi roli Evropa davlatlarida istiqomat qiluvchi ayollardan farqlangan. Bu farq birinchi navbatda ayolni tashqi ko'rinishi bilan belgilangan. Ya'ni, O'rta Osiyo ayollarining yuzini byerkitib *paranji* yopinib yurishi, jamiyat hayotidagi "ko'z ilg'amas" ishtiroki sayyohlar e'tiborini tortgan.

Xususan, O'rta Osiyo ayollari haqidagi batafsilroq ma'lumotlarni o'lkaga tashrif buyurgan A. Vambyeri, V. Nalivkin kabilarning esdaliklarida uchratishimiz mumkin. Ayollar ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatidan mahrum etilgan, ya'ni ijtimoiy huquqsiz hisoblangan. Ayollar faqat uyda o'tirib, ro'zg'or yumushlarini bajarishi, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishi lozim edi. Ayol kishining jamoat orasida, ko'cha-kuyda ochiq yuzda yurishi, begonalar bilan munosabatda bo'lishi man etilgan, deyiladi boshqa manbalarda<sup>43</sup>. Shariatga muvofiq, ayollar masjidlarga bormasligi, lekin uylarda diniy amallarni bajarishlari lozim bo'lgan. Jamoat qoidalaridan

---

<sup>42</sup> Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. ... – С. 56.

<sup>43</sup> Нормуродова Г. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – Б.24.

chetga chiqqan, engiltaklik qilgan, nikohsiz aloqalarda bo'lgan ayollar o'limga mahkum etilgan<sup>44</sup>.

Chor Rossiyasi tomonidan ushbu hududlarni bosib olinishi va Turkiston genyeral-gubynatorligining (1867 yil) tashkil etilishi nagijasida ayollar masalasiga qiziqish yanada kuchaydi. Tadqiqotchilarning ishlariga tayanadigan bo'lsak, bunda masalani ikki jihati ko'zga tashlanadi: birinchi - O'rta Osiyoda yashovchi musulima ayollar hayotini o'rganish bevosita chor Rossiyasini o'lkada olib borgan diniy siyosati bilan bog'liqligi; ikkinchi - ayrim chor ma'murlari vakillari nazarda tutgandek, rus shifokor ayollari faoliyatiga asoslanib musulima ayollarga ta'sir o'tkazish. Bu ta'sir missionyerlik xaraktyeriga ega bo'lgan. Oiladagi bunday munosabatlar barqaror odatlar va ahloqiy me'yorlar bilan mustahkamlab borilgan.

8-9 yoshli qizlar uy ro'zg'or ishlariga, jumladan tikish, paxtani chigitdan ajratish, ip yigirishga o'rgatilgan. Imkoni bor oilalar shu yoshidan boshlab qizlarini o'qishga byergan. Ularni *otinlar* o'z uylarida o'kitgan. Maktabni bitirgan qizlar Qur'onni o'qish, kitoblarni farkday olish, turk tilida (eski o'zbek yozuvida) yoza olishni bilgan. Ular 13-14 yoshidan boshlab turmushga uzatilgan. SHar'iy koidalarga muvofik *nikoh* yoshi o'g'il bolalar uchun 12 yosh, kizlar uchun 9 yosh qilib belgilangan. Ko'pincha amalda asosan 15-20 yoshli o'g'il bolalar, 10-15 yoshli qizlar o'rtasida *nikoh* munosabatlari o'rnatilgan<sup>45</sup>.

Zarafshon vohasida bo'lgan V.Radlov o'z xotiralarida, aholining ko'chmanchilik bilan turmush kechirayotgan xalqlari (qirg'iz, qoraqalpoq) o'z ijtimoiy, axloqiy me'yorlariga ega bo'lganligini ta'kidlaydi. Uning

---

<sup>44</sup> Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь... – С. 56.

<sup>44</sup> Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М., 1975. – С. 145.

<sup>45</sup> Ишанова Ш.А. Правовое регулирование семейных отношений коренного населения дореволюционного Узбекистана // Обществениис науки в Узбекистане. 1991.

fikricha, har qanday belgilangan me'yorlar ularning asrlardan byeri saqlanib kelingan odatlari bilan uyg'un bo'lgan. Albatta, ular ham islom tarafdorlari hisoblansa-da, diniy amallardan ko'ra o'z odatlariga rioya etishni muhim hisoblaganlar. Shuning uchun, ko'p hollarda ular bilan mullolar o'rtasida kelishmovchilik bo'lib turgan. Ya'ni mullalar ularni ba'zi bir diniy amallarga e'tiborsiz bo'lganliklari uchun ham sadoqatsiz deb hisoblaganlar<sup>46</sup>.

Jamiyat hayoti me'yorlari har bir shaxsning huquq va majburiyatlariga tegishli axloqiy tamoyillarda namoyon bo'lgan. Ayniqsa, ijtimoiy hayotning barcha tomonlari, jumladan kishilar o'rtasidagi munosabatlar, turmush tarzi, jamiyat mafkurasining asosi ham to'laligicha shariat talabida bo'lgan. Shariatning qonun-qoidalari musulmonlarning muqaddas diniy kitobi Qur'oni Karimda belgilab quyilgan edi. Shariatning kuchli ta'siri natijasida hatto boshqaruv tizimida ham yangi me'yorlarning yaratilishi ta'qiqlangan. Ezgulik – bu mavjud an'analar, muayyan islom talablariga qarshilik ko'rsatmaydi, yovuzlik esa bularning barchasiga qarshilik ko'rsatadi, degan g'oya bilan jamiyat tartib-qoidalari mustahkamlab borilgan<sup>47</sup>.

Aynan mana shu nuqtai nazardan, jamiyatda odamlar harakati baholangan va, shubhasiz, kimdir mavjud an'analarni buzishga yoki ularga qarshilik ko'rsatishga haddi sig'magan. O'rnatilgan tartib qoidalar doirasidan tashqaridagi barcha narsalar g'ayritabiiy hisoblangan. Musulmonlik huquqi gunoh va jinoyat o'rtasidagi farqni belgilab byergan. Masalan, biron kishi diniy toat-ibodatni bajarmay, e'tiqoddan yuz o'girsas, unda u nafaqat gunoh, balki jinoyat ham qilgan hisoblandi. Va, aksincha, agar kimdir davlat tartibini buzsa, u ham islomga qarshi jinoyat qilgan hisoblanadi. SHuning uchun ham, aholi «hamma shunday yashash kyerakki, hatto hech kimga kyerak bo'lmagan tirikchilik mayda-chuydalari ham, guyoki atrofdagilar uchun,

---

<sup>46</sup> Нормуродова Г. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – Б.35.

<sup>47</sup> Саидбаев Т.С. Ислам и общество. – М.: Наука, 1978. – С. 87.

to'liq shariat talabi va axloq qoidalari bilan yo'g'rilgan taasurot uyg'otish lozim», degan qarashlar ostida hayot kechirgan<sup>48</sup>.

Islom va shariat axloq qoidalari, insonlar o'rtasidagi amalda bo'lgan umumbashariy axloq me'yorlaridan ham yuqori hisoblangan. Bulardan tashqari, aholi urf-odatlarini, an'analari, kundalik turmush tarzi ham shariat qoidalari asosida olib borilgan. Aholi diniy ibodat qilish bilan birga, muqaddas joylarni ziyorat qilishga ham ahamiyat bergan. Bunday joylarni ziyorat qilishni aholiga ham diniy, ham shaxsiy hayoti muammolarini bartaraf etish imkoni bo'lgan. Samarqand viloyatida ana shunday muqaddas joylar ko'p bo'lgan.

Har bir qishloq va shaharlardagi mavjud jamoalarni umumiy qonun va me'yorlar, jamoat tartiblari va odatlari birlashtirib turgan. Har bir xo'jalik mahalla jamoasiga birikkan va mavjud shariat tartib-qoidalariga amal qilgan. Mahalla yoki qishloqning barcha yuqori yoshdagi yerkaklari har kuni tong saharcha masjidga borib, namozda ishtirok etishi lozim bo'lgan. Ularning doimo masjidga borib turilishi, ayniqsa, har juma jamoat namozida ishtirok etishlari kuzatib borilgan. Masjidga kelib-ketuvchilarni nazorat qilish ham maxsus mansabdagi shaxs – rais zimmasida bo'lgan<sup>49</sup>.

Mazkur davrda islom ta'sirining kuchayishi natijasida aholining ruhoniylarga bo'lgan munosabatlari ham qat'iy hurmat qilish yuzasidan kelib chiqqan. Bu davrda din va uning vakillari mavqei jamiyatda ham dunyoviy, ham diniy tomondan kuchli ta'sirda bo'ldi. Hatto, ruxoniylar amirlar uchun nafaqat ma'naviy, balki siyosiy kuch ham hisoblangan. O'zlarining siyosiy mavqeini ushlab turish va mustahkamlash maqsadida, ular ma'lum miqdordagi yer va mulklarni vaqf muassasalari foydasiga o'tkazishgan yoki sovg'a qilishgan.

---

<sup>48</sup> Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь... – С. 42-44.

<sup>49</sup> Керимов Г.М. Шариат и его социальная сущность. – М., 1978. – С. 423.

Aholi belgilangan qoidalarga ko‘ra, islom dini vakillariga nisbatan hurmat va itoatgo‘y munosabatda bo‘lish talab etilgan. Hatto bunday ijtimoiy guruh vakillari bilan uchrashganda, ularning qo‘llarini o‘pish, mashhur shayxlar bilan uchrashganda esa qo‘l va oyog‘ini o‘pish ta’kidlangan. «SHarq odob kodekslari»da yozilishicha, agar qori (Qur’onni yod bilgan kishi) bilan yo‘lda uchrashib qolinsa, bunday kishiga hurmat ko‘rsatib, undan o‘zib ketmay, orqada yurish kyerak. Agar qori o‘z ustozini yoki biron ruhoniy vakili bilan bo‘lsa, unda, albatta, ularning orqasidan yurib va ular bosgan qadamni bosmaslik zarur. Shunday munosabatlar shayx va uning muridlariga nisbatan ham aytiladi: «barcha ishlarda undan so‘roqsiz va unga itoat etgan holda, ya’ni dinga oidmi yoki oilaviy ishlarmi, albatta, u bilan maslahatlashib qilinsin»<sup>50</sup>, deb ta’kidlanadi.

O‘z ijtimoiy holati va ta’siridan foydalanib, shariat qonun-qoidalari bilan himoyalaniy yurgan ulamolar, asrlar mobaynida o‘rnatib kelinyan hayotiy har qanday diniy-axloqiy qoidalarni o‘zgartirilmoqchi bo‘lgan harakatga yo‘l qo‘ymaganlar.<sup>51</sup> Ya’ni, ijtimoiy hayotga olib kirilmoqchi bo‘lgan har qanday yangi holatga qarshi bo‘lganlar. Jamiyatning har bir a’zosi ularning so‘zini qarshiliksiz inobatga olgan.

Qayd etish joizki, xalqning ishonchi va xayrixohligidan foydalangan bu ijtimoiy qatlamlar ko‘p hollarda islom va shariat qoidalari ga zid harakat olib borgan. Jamiyatda adolatning qaror topishida, jinoyatni aniqlash va jazo belgilashda shariat qonunlari va asrlardan-asrlarga o‘tib kelayotgan odob-axloq qoidalari asosiy mezon bo‘lgan. Lekin fuqarolik va jinoiy ishlarni

---

<sup>50</sup> Сборник материалов по мусульманству. В 2-х т. – Ташкент, 1900. Т. 2. – С. 39-40.

<sup>51</sup> Остроумов Н. Характеристика религиозно-нравственной жизни мусульмань преимущественно Средней Азии // Туркестанский сборник. Т. 329. – С. 31-32.

ko‘rib chiquvchi qozilar sud ishlarini ba’zi hollarda, adolat yuzasidan olib bormagan<sup>52</sup>.

---

<sup>52</sup> Нормуродова Г. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – Б.25-28.



## XULOSA.

O'rtasiy Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi o'ziga xos mavqeiga ega hisoblanib, bu amirlikning xududi, aholisi, iqtisodiy va siyosiy holati bilan belgilangan. Qayd etish lozimki, mang'itlar hukmronligi davrida Buxoro amirligi davlat tizimida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmadi. Bu davrda barcha musulmon davlatlar singari amirlikda, ijtimoiy munosabatlardan tortib, iqtisodi, madaniy munosabatlarga qadar islom dini va uning asosi bo'lgan shariat normalari asosida olib borilgan. Bu masalani malakaviy ish mavzusining asosiy muammosi sifatida korib chiqildi hamda zarur tarixiy manba va ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida quyidagi xulosaga kelindi:

Buxoro amirligi aholisi hayotining barcha sohalaridagi ijtimoiy, me'yoriy munosabatlar islom va uning asosi bo'lgan shariatning kuchli ta'sirida bo'lgan. Buxoro amirligining huquqiy tizimi dualizmga asoslangan edi. Davlat ishlarini boshqarish, hozirgi kundagi ommaviy huquq deb nom olgan, ya'ni davlat manfaatlarini ifoda etadigan davlat huquqi, ma'muriy huquq dunyoviy xususiyatga ega bo'lsa, xuquqiy huquq deb nom olgan mulkiy, oilaviy munosabatlar hanafiylik maktabi tomonidan yaratilgan shariat qoidalari hamda mahalliy odatlar bilan tartibga solingan. Jinoyat huquqi esa davlat manfaatlari masalasida dunyoviy, xususiy manfaatlar masalasida aralash (islomiy va an'anaviy) huquq xususiyatiga ega edi.

Davlat boshqaruvini tashkil qilish va amalga oshirish munosabatlari ko'ra, tuzuk, yo'sin kabi mahalliy huquqiy odatlarga asoslangan. Yerdan foydalanish, savdo-sotiq, hunarmandchilik sohalaridagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda shariat qoidalari bilan birga an'anaviy normalar ham ko'proq salmoqqa ega bo'lgan. Hunarmandlar, savdogariarning hulq-atvorini tartibga soluvchi maxsus normalar "maqomotlar" amal qilgan.

Musulmon huquqi Buxoro amirligida hech bir davrda yagona manbaga asoslangan huquq bo'lmagan, huquqiy munosaballami tartibga solishda odat huquqining ahamiyati beqiyos edi. Bu davrdagi huquq manbalari, ulaming dualistik xususiyati, odat huquqi va musulmon huquqining amal qilish chegaralarini huquqiy tushunchalar, yuridik tyerminologiya, grammatika, yuridik texnika qoidalari masalalari chuqur tadqiq etilgan. Shunday qilib, odat huquqi va shariat qonuniarininig amal qilish chegaralarini o'rganish, huquqiy odatlarning salmo'i, ulaming sohalari va manbalarini tadqiq qilish muhim.

Ya'ni jamiyatda belgilangan har qanday qoida va me'yorlar shariat nuqtai nazaridan belgilangan edi. Bu aholining oddiy turmush tarzidan tortib, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarda, yer-suvga egalik, jamoa va oila tartiblari, soliq tizimi, aholi kasbi-kori kabilardan tortib to yuqori boshqaruv tizimiga qadar o'z aksini topgan edi. Jamiyatda o'rnatilgan islom me'yorlardan chetga chiqish yoki olib kirilmoqchi bo'lingan har qanday yangilik keskin qarshilikka uchragan. Aholi tabaqalari o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy tengsizlik jihatidan kelib chiqib, oliy tabaqaviylik imtiyozi zodagon qatlam bilan quyi qatlam o'rtasidagi farqni belgilab byergan.

Asrlardan asrlarga o'tib, saqlab kelingan urf-odatlar, qadriyatlar, marosimlar, bayramlarning xalq tomonidan bajarib kelinishi, xalq turmush tarzining ajralmas tarkibi sifatida asrab kelinayotgan an'analarga sodiqlikni yanada mustahkamlagan. Ayniqsa, diniy marosimlarning ommaviy ravishda bajarilishi islom bayramlarining boshqa an'analar bilan umumiy xususiyatga ega ekanligi an'anaviy asoslardan hisoblangan.

Yirik islom markazlaridan bo'lgan Buxoro amirligida xususan Buxoro, Samarqand kabilar ma'rifat o'choqlari sanalib, ularda ta'lim maskanlari va

o'qiydiganlar soni ham anchagina bo'lgan. O'rta Osiyoda bo'lgan xorijlik sayyoh va elchilarning qayd qilishicha, o'rta asrlar o'zbek xonliklarida musulmonlik ta'lim tizimi juda yaxshi yo'lga qo'yilgan, ayniqsa Buxoro amirligi islom ma'rifati markazlaridan hisoblangan.

Aholiga diniy ta'lim berib borishda maktab va madrasalar asosiy o'rin egallagan. Maktab va madrasalar - sabrlilik, muosalilik, kelishuvchanlik, taqdirga tan byerish, Ollohga itoatli bo'lish kabi g'oyalarning asosiy targ'ibot o'chog'i hisoblangan.

Islom va shariatning hayotning barcha sohalarida hukmron kuchga aylanishi, bir tomondan, ijtimoiy, me'yoriy va an'anaviy qadriyatlarning, munosabatlarning barqarorligini ta'minlagan bo'lsa, boshqa tomondan, diniy mutaassiblikning kuchayishi, boshqaruv tizimida zulm va zo'ravonlik holatlarining kuchayishi, yerga egalik munosabatlarida eski usulning saqlanishi, ishlab chiqarish munosabatlarining past darajada bo'lishi, jamiyat ijtimoiy tizimida tabaqalanish jarayonining turg'un saqlanishi kabi salbiy holatlar aholi va jamiyat hayotining taraqqiyotdan orqada qolishiga sabab bo'ldi.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. Prezident I. Karimov asarlari.

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2009.

### 2.

### Tari

#### xiy manba va adabiyotlar

- 2.1. Абдурауф Фитрат. Рассказы индийского путешественника. Перевод А.Н. Кондратьева. – Ташкент, 2007.
- 2.2. Айни Садриддин. Бухара (Воспоминания). В 2-х кн. Кн. 1. – Душанбе: Ирфон, 1980.
- 2.2. Ахмад Ибн Махмуд Бухорий. «Муъин ал-фукаро». Тарихий Муллазода (Бухоро мазорлари зикри). Абу Тохирхожа Самарқандий. Самария. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.
- 2.3. Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. Избранное. Перевод с таджик. М.Н. Османова и Л.Н. Демичик. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1960.
- 2.4. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М., 1975.
- 2.5. Сами Мирза Абдал'азим. Та'рих-и салатин-и мангитийа (История мангитских государей) / Издание текста, предисловие и примечания Л.М. Епифановой. – М., 1962.

2.6. Трактат Ахмада Дониша. «История Мангитской династии». Перевод, предисловие и примечания И.А.Наджафовой. – Душанбе.: Дониш, 1967.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI-первой половине XIX века. В 2-х т. – Ташкент, 1970. Т.

2. Алимова Д.А., Рашидова Д.А. Махмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Тошкент: Академия, 1999.

3. Алимова Д, У. Рашидов. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухородаги сиёсий ҳаракатлар ва курашлар. – Бухоро-2009. – 114 б.

4. Алимова Д.А. История как история, история как наука. В 2-х т. Т. 2. – Ташкент: Узбекистан, 2009.

5. Аминов.А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). – Ташкент: Госиздат Уз ССР, 1959.

6. Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате (начало XX века). – Хужанд, 2000. – С.78.

7. Жадидчилик: ислоҳат, янгиланиш ва тараққиёт учун кураш. – Тошкент: Университет, 1999.

8. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.) – Ташкент: Фан, 2012. – 776 с.

9. Ражабов Қ., Ҳайитов Ш. Усмон Хўжа. – Тошкент: Abu Matbuot Konsalt, 2011.

10. Қосимов Ф. Ўзбек давлатчилиги тарихида Бухоро ҳукмдорларининг ўрни. // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. – Т. 2001.

11. Сагдуллаев А., Аминов Б, Мавлонов., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент, 2000. I-қисм.
12. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Тошкент, 1996.
12. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1 қисм. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000.